

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM**

**VAZIRLIGI**

**Z.M. BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI**

**O'ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

**5120300 Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo`yicha) ta'lif yo`nalishi**

**IV kurs bitiruvchisi**

**Mamaraximov Xusnidin**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: O'zbekistonda 1950-80 yillarda ta`lim tizimi.**

**Ilmiy rahbar:**

**Tajimirzayev E.**

**O'qituvchi**

**ANDIJON – 2016**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
I.BOB. O`zbekiston Fanlar Akademiyasining fan, ta`lim tizimidagi faoliyati .....	6-11
II. BOB. O‘zbekistonda 1950-1980 yillarda maorif va oliy ta’lim tizimi va uning faoliyati.....	12-24
III. BOB. XX asrning 50-80 yillarda fan va adabiyotning ta`lim tizimidagi roli.....	25-47
XULOSA.....	48-50
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	51-52

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, barcha sohalarda tub burilishlar boshlandi. Jumladan, ona-Vatan tarixini bilishga, o‘zlikni anglashga qiziqish ortdi. Xususan, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “*O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi*”.<sup>1</sup>

1946—1985 yillar oralig‘ida Markaz ideologlari tomonidan o‘ylab topilgan ana shu xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham maorif, oliy ta’lim, ilm-fan, san’at o‘ta siyosiyashgan holda rivojlanishga majbur qilindi.

Yana eng muhimi shundaki, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o‘zida mujassamlashtirgan yagona «soviet madaniyati» yaratilganligining e’tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha xalqlar ma’naviyatining bundan keyingi yo‘nalishini belgilab berdi. Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lgan erkinlik, demokratiya batamom yo‘q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning «rivoji» maxsus qolipga solindi. Siyosiy o‘lchovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo‘qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxc sifatida «chetga surib» qo‘yildi.

Ayni paytda, 1946—1985 yillarni o‘zbek madaniyati uchun to‘liq tushkunlik davri deyish ham xato bo‘lur edi. CHunki bu davrda mafkuraviy tazyiqlar, qolipga solishlar kuchaygan bo‘lsa-da, madaniyat ma’lum darajada rivojlandi. Bu yillarda yaratilgan ijobiy ishlar, omma orasida olib borilgan mada niy-ma’rifiy tadbirlar o‘ta siyosiyashgan va mustabid tuzum uchun xizmat qilgan bo‘lsa ham, u baribir o‘zbek xalqining shu davrdagi milliy madaniyati bo‘lib qoldi, xalqning madaniyma’rifiy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Xususan, bu fan sohasi, maorif, oliy ta’lim muassasalariga tegishlidir.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Ўзбекистон, 1998.– Б.5.

Respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni engib o'tishiga to'g'ri keldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu «odat» urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishda O'zbekistonda 1940-1980 yillarda fan, ta'lim, madaniyat taraqqiyoti masalarini tadqiq qildik.

**Mavzuning amaliy ahamiyati.** 1946-47 o'quv yilida respublikada 4483 maktab bo'lib, 212.000 o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1965-66 o'quv yilida 9716 ga undagi o'quvchilar soni 2.476.000 kishiga etdi. Oliy o'quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga etdi. Bu miqdor "mahalliy millat yigit qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin" degan aqidaga asoslanganligini ko'rsatadi. SHunday bo'lishiga qaramay O'zbekistonliklarni, xususan o'zbeklarni ilmga chanqoqligi har qanday sun'iy to'siqlarni enga boshladi.

O'zbekistonda fan va texnikaning hamma sohalarida yirik olimlar etishtirilib, fan nomzodlarini va doktorlarini tayyorlash bo'yicha sobiq SSSRda oldingi qatorlarga chiqdi.

1950 yil O'zbekistonda 1760 fan nomzodi 180 fan doktorlari ilmiy ish olib bordi. 1965 yilda esa, fan nomzodlarining soni 4000 va fan doktori 324 ga etdi. 50-60 yillari Respublika Fanlar Akademiyasining olimlari ayniqsa matematika-mexnanika, tibbiyot, energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida ishlar olib bordi. Bir qancha ilmiy-tekshirish institutlari travmatologiya va ortopediya, energetika, matematika, onkologiya va radiologiya, O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish, kibernetika va boshqa bir qancha institutlar shu yillarda ishga tushirildi. Fanlar Akademiyasi qoshida Falsafa va Huquq instituti tashkil etilib, SHarqshunoslik instituti faoliyati kengaytirildi.

50-yillardan boshlab respublikada ilmiy-tadqiqot ishlari atom quvvatidan foydalana boshladi. Dastlabki paytda atom quvvati Toshkent va Samarcand Davlat Universitetlari laboratoryalaridan fanlar akademiyasining fizika-texnika institutida, Politexnika va meditsina institutlarida ishlatildi. Lekin texnika bazasi etarli bo'limganlikdan atom quvvatidan foydalanish doirasi tor bo'ldi. 1956 yil boshlarida Toshkentdan 30 km yiroqda, 750 shtat birligida mo'ljallangan ilmiy-

tadqiqot yadro insituti va barcha qulayliklarga ega bo‘lgan shaharcha qurilib, 1958 yili ishga tushirildi. Uning birinchi direktori etib yirik fizik olim, akademik Ubay Orifov tayinlandi. Xullas ishda ana shu ta’lim va fan sohasidagi erishilgan yutuqlar bayon etilgan.

**Mavzu tarixshunosligi.** O‘zbekistonda 1940-1980 yillarda fan, ta’lim taraqqiyoti masalalari tarixini o‘rganishda mustaqillik yillarida bir qator katta ilmiy izlanishlar amalga oshirilib, mavzuga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalar chop etildi. Jumladan, M.Jo‘raev, R.Nurillin, R.Murtazaeva, Q. Rajabov, A.Mavrulov, D.Alimova, N.Karimov, R.SHamsutdinov, K.Oqilovlar ushbu davrni o‘rganishda va tadqiq etish salmoqli hissa qo‘shganlar<sup>1</sup>.

**Mavzuning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishni bajarishda kuyidagi maqsad va vazifalar qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil topishi va uning faoliyati tadqiq qilish;
- XX asrning 50-80 yillarida halq ta’limi tizimidagi muammolar va yutuqlarni ma’lumotlar asosida yoritish;
- O‘zbekistonda “madaniy inqilob”, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va muammolar;
- Fan, adabiyot va san’atning yangicha yo‘nalishdagi taraqqiyoti;
- mavzuga oid manbalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida xulosalar chiqarish, amaliy taklif va tavsiyalar berish.

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ish kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati va taqdimot qismlaridan iborat.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000; Ўзбекистон тарихи (олий ўкув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслер). Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003; Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchli kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – Т.: Sharq, 2010 ва бошқалар.

## I. BOB. O`zbekiston Fanlar Akademiyasining fan, ta'lim tizimidagi faoliyati

O`zbekiston ishchi va mehnatkashlari bilan bir qatorda fan, maorif va madaniyat xodimlari ham nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan g`alabaga o`zlarining munosib hissalarini qo`shdilar. “Hamma narsa front uchun, hamma narsa g`alaba uchun!” shioriga “labbay!” deb javob bergan ko`pgina olimlar urushning birinchi kunlaridayoq frontga ketdilar. Ular orasida O`zbekistonning mashhur olimlaridan-U.A. Arifov, YA.X. To`raqulov, I. Ismoilov, X. Usmanov va boshqalar bor edi. T.N. Qori-Niyozov, V.I. Romonovskiy, T.Z. Zaxidov, I.A. Raykova, O.S. Sodiqov kabi olimlar natijasi xalq xo`jaligi va front zaruriyati uchun xizmat qilgan muammolarni hal qilishda katta kuch bilan mehnat qildilar.<sup>1</sup>

Urushning dastlabki kunlaridayoq Ittifoq Fanlar Akademiyasining o`zbek filiali, respublikada ishlab turgan 75 ta ilmiy muassasalar, shu jumladan, 25 ta ilmiy-tadqiqot institatlari, 23 ta ilmiy stansiya va boshqalar, barcha olimlar xo`jalikni harbiy izga solish bilan aloqador muammolarni hal etishga jalb etildi. Ularning zavodlar, fabrikalar, temir yo`l, va avtomobil yo`llari, transport korxonalari bilan bevosita aloqalari o`rnatildi. O`zbekistonlik olimlar ko`chib kelgan yirik olimlar bilan yaqin aloqa bog`ladilar. Respublikamizda mavjud bo`lgan va ko`chirilib keltirilgan ilmiy muassasalarning tadqiqot yo`nalishi qayta qo`rib chiqildi, urush talablariga moslab o`zgartirildi. Geolog olim H.M.Abdullaev va boshqalarning tadqiqtolari natijasida qalay, volfram, molibden, o`tga chidamli metalllar, nodir metalllar va boshqa turdagи xomashyo konlari topildi va o`zlashtirildi. A.S.Uklonskiy boshchiligidagi geologlar guruhining Turangli temir konini topish, o`zbek metalluriya kombinati qurulishini loyihalashtirish va ularni foydalanishga tushirishdagi xizmatlari katta ahamiyatga ega bo`ldi. D.M.Bogdanov va muhandis G.S.CHikrizovlar Angrenda qidiruv ishlariga boshchilik qildilar va ko`mir konining boy resurslarini topib yangi shaxtalar qurishga ko`maklashdilar.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи (олий ўкув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслик). Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003, - Б. 340.

<sup>2</sup> Ўша асар, - Б. 341.

Dori-darmonlar tayyorlash borasidagi tadqiqotlar natijasida aholi ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan turli xil dori-darmonlar ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi. Toshkentda farmatsevtika zavodi qurilib ishga tushirildi.

Urush yillarida gumanitar fanlar ham ancha rivojlandi. Toshkentga ko‘chib kelgan yirik tarixchi, arxeolog, huquqshunos, sharqshunos, adabiyoshunos olimlar o‘zbekistonlik hamkasblari bilan O‘zbekiston xalqlari tarixi, madaniyati va adabiyotining muhim masalalarini ishlab chiqdilar. V.V.Struve, V.A.SHishkin, E.E.Bertels, I.K.Dodonov, V.YU.Zohidov, X.SH.Inoyatov, A.YU.YAkubovskiy, M.E.Masson, S.P.Tolstov, YA.G‘.G‘ulomov va boshqalar O‘zbekistonning eng qadimgi va o‘rta asrlar tarixi, moddiy madaniyati va ma’naviyati, O‘rta Osiyo xalqlarining etnogenezi bo‘yicha qator asarlar tayyorladilar. Ikki tomlik «O‘zbekiston SSR tarixi»ning yaratilishi tarix fanining katta yutug‘i bo‘ldi. YOzuvchi Aleksey Tolstoy rahbarligida rus va o‘zbek olimlari birgalikda «O‘zbekiston adabiyoti tarixi» asarini yaratdilar. 1943 yil 27 sentyabrdan SSSR hukumati O‘zbekistonda Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida qaror qabul qildi. 1943 yil 4 noyabrdan O‘zbekiston Fanlari Akademiyasi ochildi, uning birinchi prezidenti etib taniqli olim T.N.Qoriniyozov saylandi. Mahalliy millat vakllaridan fan doktori va nomzodlari tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. 1944 yilda O‘zFA Prezidiumida aspiraniura tashkil etildi.<sup>1</sup>

Moskva, Leningrad, Kiev, Xarkov, Voronej, Odessa va boshqa shaharlardan ko‘chirilib keltirilgan 31 oliy o‘quv yurti va 7 harbiy akademiya qabul qilib olindi. Ularning ba’zilari o‘zaro yoki O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari bilan birlashdilar. 1945 yilda oliy o‘quv yurtlari soni 1940 yilga nisbatan 3 taga ko‘paydi. Ular 33 tani tashkil etdi, talabalar soni esa 19,1 mingdan 21,2 ming kishiga ortdi. Urush yillarida hammasi bo‘lib 10 mingdan ko‘proq oliy malakali va 3,7 mingga yaqin o‘rta maxsus ma’lumotli mutaxassis tayyorlandi. Xalq maorifi tizimida jiddiy qiyinchiliklar ham mavjud bo‘ldi. Ko‘plab maktablarning binolari gospitallar, yotoqxonalar, harbiy o‘quv yurtlariga berildi. Maktablar birlashtirildi, ko‘p smenali

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.488

o‘qish joriy qilindi. Respublika maktablarida ishlayotgan o‘qituvchilarning 74,6 foizini erkaklar tashkil etardi. Ular frontga, ishlab chiqarish ishlariga safarbar etildi. Darsliklar, uskunalar, daftارlar etishmas edi. O‘zbekiston hukumati umumta’lim to‘g‘risidagi qonunni bajarish, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlari bilan muntazam shug‘ullandi. Qisqa muddatli o‘qishlar tashkil etilib, boshlang‘ich sinflar uchun o‘qituvchilar tayyorlandi. Maktablarda ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash maqsadida o‘quvchilar bilimini baholashning besh balli tartibi, boshlang‘ich va etti yillik maktablarni tamomlovchilar uchun bitiruv imtihonlari, o‘rta maktabni tamomlovchilar uchun etuklik attestatiguvochnomasi uchun imtixonlar topshirish majburiyati, maktab o‘quv dasturlarini a’lo o‘zlashtirgan va a’lo xulqli o‘quvchilarni oltin va kumush medallar bilan taqdirlash joriy etildi. Bu dars mashg‘ulotlari saviyasini ko‘tarishga, o‘quvchilar intizomini yaxshilashga olib keldi. Ko‘chirilib keltirilgan muassasalar o‘z joylariga qaytib keta boshlagach, maktab binolari ham bo‘shatila boshlandi, boshqa ishga o‘tgan o‘qituvchilar, armiya safidagi o‘qituvchilar maktabga qaytarildi, o‘quvchilar o‘z maktablari bag‘riga qaytib, o‘qishni davom etdirdilar. 1940-41 o‘quv yilida 5504 umumta’lim maktablarida 1368,9 ming o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1945-46 o‘quv yilida 4976 umumta’lim maktablarida 989,2 ming bola ta’lim oldi.<sup>1</sup>

O‘zbek matematik, mexanik va astronomlari aviatsiya, o‘q-dori, harbiy texnika sifatini oshirishga aloqador bo‘lgan bir qancha muhim ilmiy muammolarni hal qildilar. Bunda T.A. Sarimsoqov, V.I. Romonovskiy, M. Kamolov, N.N. Nazarov va boshqa olimlar hissasi katta bo‘ldi. Ularning ehtimollik nazariyasi va matematika statistikasi sohasidagi ijodiy izlanishlari artilleriya otishmalari va bomba tashlash aniqligini, jangovar samolyotlarning yuk ko‘tarish imkoniyatini oshirishga, respublikada ishlab chiqarilayotgan harbiy texnikaning sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirishga imkon berdi.

Geolog olimlar foydali qazilma boyliklarni qidirib topish, sanoatni zarur xom ashyo bilan ta’minalash vazifalarini bajarishga katta e’tibor berdilar.

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи (олий ўкув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслик). Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003, - Б. 342.

O‘zbekiston tog‘lari va cho‘llarida 1943 yilning o‘zidagina 35 ta geologiya ekspeditsiyalari ish olib bordi. O‘zbekistonlik kimyogarlar paxta chiqindisidan xalq xo‘jaligida foydalanish taklifini, etil spirtini, sirka kislotasini, qamishni quruq qayta ishlash natijasida ko‘mir briketini olishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Bunda akademik O.S. Sodiqov boshliq guruh ishlari alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston o‘simgiliklarining alkoloidlik xususiyatini o‘rganish yuzasidan akademik S.YU. Yunusov rahbarligida katta ishlar olib borildi. O‘rta Osiyo davlat universiteti (O‘zMU)ning kimyo fakultetida urush davrida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan narkoz efiri, xlorli kalsiy, kofein, streptotsid, sulfidin, nikotin kislotasi ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Fakultet bazasida Toshkent farmatsevtika zavodi tashkil etildi. O‘zbekistonlik farmatsevtlar mahalliy xom ashyodan 15 ta yangi dori preparatlarini ishlab chiqarish usullarini kashf etdilar.<sup>1</sup>

Ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, ularni muvofiqlashtirishni dastlab 1940 yilda tashkil etilgan SSSRFAning O‘zbekiston filiali (O‘zFAN), keyin 1943 yil noyabrdagi ochilgan O‘zFA amalga oshirdi. O‘zFA ning birinchi prezidenti qilib T.N. Qori Niyozov saylandi. Bu o‘zbek xalqi hayotida muhim voqeа bo‘ldi. 1943-1945 yillarda qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar bilan O‘zFA Ittifoqda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Bu paytda akademiya tarkibidagi 22 ta ilmiy muassasada 818 ilmiy xodim fan olamining turli jabhalarida tadqiqot ishlarini olib bordilar. O‘zFAning faoliyatida ko‘chirib keltirilgan ilmiy xodimlarning ham o‘ziga xos hissasi bo‘ldi.

Urush yillarining qiyinchiliklariga qaramasdan O‘zbekistonda Oliy va o‘rta maxsus yurtlari va maorif muassasalarining faoliyati ham to‘xtab qolmadi. O‘zbekistonda 29 ta oliy va 52 ta o‘rta maxsus o‘quv yurti ishlab turdi, ularning soni markazdan ko‘chirib keltirilgan 31 ta oliy o‘quv yurti va 7 ta harbiy akademiya hisobiga yana ortib bordi. Bu o‘quv yurtlarida urush yillari mobaynida 11.750 nafar yuqori malakali mutaxassis va 6.673 nafar kadrlar tayyorlandi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи (олий ўкув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслик). Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003, - Б. 343.

Xalq ta’limi sohasida ham o‘qituvchilarning frontga ketishi, ko‘pgina binolarning gospitallarga, bolalar uyi va harbiy-o‘quv punktlariga berilishi, darslik va o‘quv qo‘llanmalarining, mutaxassis kadrlarning etishmovchiligi anchagina qiyinchiliklarni keltirib chiqargan edi. SHunday bo‘lsa ham urush yillarida o‘qitish ishlari muntazam olib borildi. O‘quvchilar mакtabda o‘qish bilan birga yaradorlarga, frontga ketganlarning oila a’zolariga, urush nogironlari oilalariga yordam berdilar.

O‘zbek adabiyoti ham xalqimizning yovuz dushmanga qarshi kurash yillarida o‘zining munosib hissasini qo‘shti. Oybek, Hamid Olimjon, SHayxzoda, G‘ofur G‘ulom, Uyg‘un, Sobir Abdulla, Zulfiya, Temur Fattoh kabi shoir va yozuvchilar urush maydonlariga safarbar etuvchi she’rlari va maqolalari bilan xalqni g‘alabaga ruhlantirdilar. Oybekning “YOvg‘a o‘lim!” she’ri, “Navoiy” romani, “Men yahudiy”, Hamid Olimjonning “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari” va boshqa asarlar urush yillaridagi o‘zbek adabiyotining yorqin namunalaridir. M. Ismoiliy, Ilyos Muslim, Nazarmat, Adham Rahmat, N. Safarov, Ibrohim Rahim, Z. Fatxullin, Adham Hamdam kabi yozuvchi va jurnalistlar frontda ishtirok etib, “Qizil armiya”, “Front haqiqati”, “Qizil askar haqiqati”, “Suvorovchi”, “Vatan sharaфи uchun” kabi front gazetalarida xizmat qilish jarayonida, Hamid Olimjon, Oybek, A.Umariy, /afur /ulom, Ra’no Uzoqova va boshqa shoir, ham yozuvchilar hukumat delegatsiyalari tarkibida frontning oldingi marralariga borib, o‘z qahramonlari bilan tanishdilar, yurtdoshlarining jasoratlarini tarannum etdilar.

A.Axmatova, I. Virta, S. Gorodetskiy, A. Deych, K. Zelinskiy, YA. Kalas, N. Pogodin, A. Tolstoy, V. YAn kabi yozuvchi-shoirlar ham O‘zbekistonda yashab, o‘zbek adabiyotchilari bilan hamkorlikda ajoyib asarlar yaratdilar. Bunda respublika YOzuvchilar uyushmasiga rahbarlik qilgan H. Olimjonning xizmati katta bo‘ldi. Dramaturgiya sohasida N. Pogodin, Hamid Olimjon, Uyg‘un va Sobir Abdullalar yozgan “O‘zbekiston qilichi” va A. Umariyning “Qasos”, YAshin va Sobir Abdullaning “Davron ota” kabi asarlari bilan birga Uyg‘un va Izzat Sulton “Alisher Navoiy”, Hamid Olimjon “Muqanna”, Maqsud SHayxzoda “Jaloliddin

Manguberdi”, Oybek “Mahmud Tarobiy” kabi dramatik asarlarini yaratdilar-ki, ularda o‘zbek xalqining bosqinchilarga qarshi kurash sahifalari aks ettirildi.

1941-1945 yillardagi urush davrida O‘zbekistonda ta’sirchan vosita hisoblangan teatr va san’at ancha rivojlandi. Teatr va san’at arboblari frontning oldingi marralarida bo‘ldilar. Bu davrda O‘zbekistonda 35 ta mahalliy va 16 ta ko‘chirib keltirilgan teatr jamoasi faoliyat ko‘rgazib, butun urush davomida 203 ta yangi postanovka tayyorladilar va 6 667 303 tomoshabinga 13.568 ta spektakl va konsertlar ko‘rsatdilar<sup>1</sup>.

Ikkinchi jahon urushi yillarida respublikamizda 30 dan ortiq konsert brigadalarini tashkil etilib, ular harakatdagi armiya qismlarida 35 mingdan ortiq, Turkiston harbiy okrugi qismlari va gospitaldagi nogironlarga 26 mingta konsert qo‘yib berib, jangchilarni ruhlantirdilar, ularni fashizm ustidan g‘alabaga undadilar. Ayniqsa, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mukarrama Turg‘unboeva, Sora Eshonto‘raeva, Abror Hidoyatov, SHukur Burhonov kabi san’atkorlar ishtirokidagi konsert va tomoshalar jangchilar, tomoshabinlar qalbiga zo‘r ko‘tarinkilik baxshida etgan. A. Abdullaev, CH. Ahmarov, O‘. Tansiqboev kabi rassomlar urush lavhalari, badiiy yilnomalarni yaratib, xalqimizning front va front orqasidagi fidokorona mehnatini mahorat bilan tasvirladilar.

Qisqa metrajli filmlar va 10 ta ovozli badiiy filmlarini yaratish bilan I. A’zamov, K. YOrmatov, N. G‘aniev, S. Muhamedov kabi o‘zbek rejissyorlari urush yillarida kinomotografiyani rivojlantirdilar. Bu davrda ishlangan “Nasriddin Buxoroda”, “Tohir va Zuhra” kabi filmlar “O‘zbekfilm”ning oltin fondiga aylandi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий мухаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.490

## **II. BOB. O'zbekistonda 1950-1980 yillarda maorif va oliy ta'lif tizimi va uning faoliyati**

Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston sovetlar hukumati maorif, fan va madaniyatni rivojlantirishga e'tibor bermadi, deyishga hech qanday asos yo'q. Ammo bu tarmoqlar buyuk davlatchilik siyosati manfaatalariga bo'ysundirilgan holda olib borildi. Bu siyosatni «baynalminalchilik» va «shaklan milliy mazmunan sotsialistik» deb atalgan shovinistik g'oyalar asosida amalga oshirildi. Chunki «baynalminalchilikka» tashqi shakl va tashviqot-targ'ibot nuqtai nazaridan haqiqiy baynalminalchilik g'oyasi berilgan bo'lsada, amalda sovetlar hukmronligi davrida bu g'oya har qanday milliylik va milliy manfaatni nazar-pisand qilmas, milliylik va milliy manfaat g'oyasi tarafdoरlarini hech ikkilanmasdan iskanja ostiga olar va qatag'on qilar edi. «Shaklan milliy va mazmunan sotsialistik» madaniyat g'oyasi ham aslida mahalliy millatlar ongini zaharlash quroli bo'lган. Chunki «shakl» shunchaki ishlatilgani holda asosiy maqsad g'oya mazmun pardasiga o'ralgan bo'lib, u miliy qadriyatlarni g'orat qilib, «sotsialistik» niqob ostida ruslashtirish manfaatlariga xizmat qilar edi. 1946-1990 yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim rivojini quyidagi raqamlar ko'rsatdi: 1940-41 o'quv yilida 5448 umumta'lim maktablari bo'lib, ularda 1 million 651,1 ming o'quvchi ta'limtarbiya olgan bo'lsa, 1987-'88 o'quv yilda 8111 umumta'lim maktablarida o'quvchilar soni 4 million 406,3 ming kishiga etdi, ya'ni taxminan uch yarim barobarga yaqin ko'paydi. 1990 yilda umumta'lim maktablari soni 9000 taga etdi<sup>1</sup>.

1946—1985 yillar oralig'ida Markaz ideologlari tomonidan o'ylab topilgan ana shu xayoliy va noilmiy aqidalar girdobida, butun mamlakatda bo'lganidek, O'zbekistonda ham maorif, oliy ta'lim, ilm-fan, san'at o'ta siyosiylashgan holda rivojlanishga majbur qilindi.

Yana eng muhimi shundaki, bu davrda barcha milliy respublikalar va millatlar madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yagona «soviet madaniyati»

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010 – B. 390-391.

yaratilganligining e'tirof etilishi SSSRga birlashtirilgan barcha xalqlar ma'naviyatining bundan keyingi yo'naliishini belgilab berdi. Ushbu davrda madaniyatga xos, uning rivojlanishi uchun muhim omil bo'lган erkinlik, demokratiya batamom yo'q qilindi. Madaniyat, ayniqsa, milliy madaniyatning «rivoji» maxsus qolipga solindi. Siyosiy o'lchovlarga, kommunistik mezonga javob bermagan har qanday asar yo'qqa chiqarildi, uning muallifi esa jamiyatga yaroqsiz shaxs sifatida «chetga surib» qo'yildi.

Ayni paytda, 1946—1985 yillarni o'zbek madaniyati uchun to'liq tushkunlik davri deyish ham xato bo'lur edi. CHunki bu davrda mafkuraviy tazyiqlar, qolipga solishlar kuchaygan bo'lsa-da, madaniyat ma'lum darajada rivojlandi. Bu yillarda yaratilgan ijobiy ishlar, omma orasida olib borilgan mada-niy-ma'rifiy tadbirlar o'ta siyosiylashgan va mustabid tuzum uchun xizmat qilgan bo'lsa ham, u baribir o'zbek xalqining shu davrdagi milliy madaniyati bo'lib qoldi, xalqning madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirishga xizmat qildi. Xususan, bu maorif, oliv ta'lim muassasalariga tegishlidir.

Respublika xalq ta'limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni engib o'tishiga to'g'ri keldi. Urush yillarida ta'lim tizimiga e'tibor berilmadi. Ana shu «odat» urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi.

Urush davrida o'qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki yillarda ta'lim tizimiga tortish juda muhim masala bo'lib qoldi. Bundan tashqari, urush yillarida ta'lim sifati ham juda pasayib ketgan bo'lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi. Bu esa o'quv-chilarni o'qishdan bezdirar, o'qishni tashlash va sinfda qolish hollari ko'paymoqla edi. Masalan, 1945/46 o'quv yilida O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar soni rejadagi 1 mln. 10 ming kishi o'rniga 823 ming kishidan iborat bo'ldi. Sinfda qolgan o'quvchilar soni ham ko'p bo'lib, 1946 yilda u barcha o'quvchilar-ning 37%ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o'qishni tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko'ndalang bo'lib turardi.

O'qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. CHunki malakali o'qituvchilar asosan urush ga

yuborilgan, ularning ko‘pchiligi halok bo‘lgan- di. Xususan, 1947 yilda respublika bo‘yicha 4 ming o‘qituvchi etishmasdi. Tuman xalq maorifi bo‘limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta’lim bo‘yicha direktor muovinlarning 60%dan ko‘prog‘i tegishli ma’lumotga ega emasdi. 1950 yilda 7125 maktab o‘qituvchilarga muhtojlik sezardi.

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida «O‘zbekiston SSRda majburiy etti yillik ta’lim- ni to‘liq amalga oshirish to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo‘ldi. Yangi qonunga ko‘ra umumta’lim maktabi hamma uchun majburiy bo‘lib qoldi. Biroq bu bilan respublika maktablarida mavjud bo‘lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab haqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o‘quv- chilarga berilayotgan bilimlar fan- texnika taraqqiyoti dara- jasiga to‘g‘ri kelmasdi. SHuning uchun ham 1959 yil martda O‘zbekiston Oliy Soveti «Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta’limi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida» yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo‘lgan boshlangan ishni oxiriga etkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo‘lida to‘g‘anoq bo‘lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta’limida ahvol o‘zgarmadi.

60-yillar O‘zbekistonda «rivojlangan sotsializm» bosqichi deb e’lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoi- iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy sohalarda jiddiy sifat o‘zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Biroq, amalda unday bo‘lmadi. Lekin buning o‘rniga siyosiy rahbariyat aqida- parastlikni, ommaviy- siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta’lim tizimi ham ana shu «girdobga» tashlandi.

Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini keng- roq o‘qitishga urg‘u berdi. Natijada 60-yillarda O‘zbekiston tarixi, o‘zbek tili va adabiyoti, chet tillari, musiqa va qo‘sish- chilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o‘quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo‘shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti predmeti o‘qitildi. Masalan, o‘qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi — XX asr boshlarida o‘zbek adabiy-badiiy muhiti», «Milliy

madaniy jarayon- lar» to‘g‘risidagi mavzularda dare o‘tishi lozim bo‘lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko‘rsatib berishga majbur bo‘ldilar. Nihoyatda boy va ko‘hna o‘zbek xalqi tarixini o‘rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang‘ich maktablarda rus tili va adabiyoti predmetlari uchun 1600 soat ajratildi.

70—80-yillarda O‘zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o‘zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o‘qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. To‘g‘ri, bu yillarda maktablar, o‘quvchilar, o‘qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko‘rsatkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi. Masalan, O‘zbekistonda 1945/46 o‘quv yilida jami 4525 maktab bo‘lib, ularda qariyb 998 ming o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1970/71 o‘quv yilida respublikaning umumiy ta’lim maktablari soni 7072 taga, ularning o‘quvchilari esa 3 mln. 164 ming kishiga etdi.<sup>1</sup>

1969 yilda Rossiyada aholining 10 ming nafariga 14 klub muassasasi to‘g‘ri kelsa, Belorussiyada 11 ta, O‘zbekistonda esa atigi 4 ta edi. Madaniy-ma’rifiy muassasalarga davlat tomonidan ajratilgan mablag‘ aholini jon boshiga Estoniyada 21,3 so‘mni, Armanistonda-17,9 RSFSRda-9,7 so‘mni tashkil qilsa, O‘zbekistonda 4,5 so‘mni tashkil qilardi. Respublika kutubxonalarining kitob fondi 1950-1970 yillarda o‘n barobarga ko‘paygan bo‘lsa, lekin ularning ko‘pchilagini mafkuraviy targ‘ibot uchun zarur bo‘lgan marksizm-leninizmga oid asarlar tashkil qilar edi. Olingan kitoblarning 8-10 foizgina respublikada nashr etilgan bo‘lib, qolganlari chetdan keltirilib, ularning aksariyati rus tilida edi. Madaniy-ma’rifiy muassasalar moliyaviy jihatdan davlat nazorati chetda qolganligi uchun bunday muassasalar ko‘pincha jamoatchilik asosida qurildi. Masalan: 1961 yili O‘zbekiston kasaba uyushmalari tashkilotlari tomonidan jamoatchilik asosida 45 madaniyat va texnika universitetlari, 5 ta xalq teatrлari, 1.258 jismoniy tarbiya jamoalari ish olib bordi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini yaxshilash uchun o‘nlab qarorlar qabul qilinardi. Biroq, bu qarorlar milliy maktablarda to‘liq bajarilmasdi. Maktablar

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.570-571.

urushdan keyin ham darsliklar bilan to‘liq ta’minlamadi. Moddiy o‘quv bazasi rusiyzabon maktablarnikidan ancha past edi.

O‘rta maktabni bitiruvchilari orasida erta turmushga berilishi tufayli qizlar kamchilikni tashkil qilar edi. Maorifni rivojlantirishda mahalliy millatlarga past nazar bilan qarash sovet tuzumi siyosatining pinhona faoliyatiga yashiringan edi. Keyingi yillarda ochilgan arxiv ma’lumotlarida sobiq ittifoqdagi respublikalarda ongli, madaniyatli, hurfikrli kishilarni bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi mahfiy ko‘rsatmalar bejiz emas edi. 1985 yilda oliy o‘quv yurtlari soni 42 taga etdi.<sup>1</sup>

1946-47 o‘quv yilida respublikada 4483 maktab bo‘lib, 212.000 o‘quvchi o‘qigan bo‘lsa, 1965-66 o‘quv yilida 9716 ga undagi o‘quvchilar soni 2.476.000 kishiga etdi. Oliy o‘quv yurtlarida talabalar soni 21.190 dan 168.800 taga etdi. Bu miqdor “mahalliy millat yigit qizlari bilim uchun emas, diplom uchun qiziqsin” degan aqidaga asoslanganligini ko‘rsatadi. SHunday bo‘lishiga qaramay O‘zbekistonliklarni, xususan o‘zbeklarni ilmga chanqoqligi har qanday sun’iy to‘siqlarni enga boshladи.

Shu yillar mobaynida o‘rta maxsus va oliy ta’lim tarmoqlari ham rivojlandi. 1940-41 o‘quv yilida O‘zbekistonda 98 ta o‘rta maxsus o‘quv yurtlari mavjud bo‘lsa, 1960 - 61 o‘quv yilida ularning soni 75 taga tushib qoldi, 1988 yillarda esa 248 tani tashkil etdi. Shu yillar mobaynida ularda o‘quvchilar soni ham o‘sdi: O‘rta maxsus o‘quv yurtlarida o‘quvchilar soni 1940 - 41 o‘quv yilida 25,1 ming, 1960 - 61 o‘quv yilida 292,0 ming kishini tashkil etdi.

Oliy o‘quv yurtlari tarmog’i ham o‘sdi. 1940-41 o‘quv yilida O‘zbekistondagi 30 oliy o‘quv yurtida 19,1 ming talaba tahsil ko’rgan bo‘lsa, 1960 - 61 o‘quv yilda 30 oliy o‘quv yurtida 1001,3 ming va 1987-88 o‘quv yilida 43 oliy o‘quv yurtida 300,3 ming talaba o‘qidi.

RSFSR Ukrainadagi pedinstitutlarda rus tili va adabiyoti fakultetlariga O‘zbekistonda ko’plab talabalarning qabul qilinishi va o‘qitilishi ham ruslashtirishning bir vositasi sifatida namoyon bo’ldi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон тарихи (олий ўкув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслик). Р.Х.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003, - Б. 355-356.

Shu yillar mobaynida respublikada hunar-texnika bilim yurti tarmoqlari ham kengaydi. Umumta'lim, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim tarbiya beruvchi o'qituvchi-pedagog kadrlar soni ham bir qadar o'sdi. Ammo sovetlar hukumati o'zining mustamlaka o'lkasi hisoblangan O'zbekistonda ham ma'noda mustaqil davlat manfaati va talablariga javob beradigan ta'lim-tarbiya siyosati olib bormadi. Asosiy e'tibor mustamlakachilarga tez obro' keltiradigan qorni shishirilgan raqamlar o'suviga qaratildi, ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy o'zagini tashkil etuvchi mazmun esa mustamlakachilar manfaatiga xizmat qilardi. Milliy manfaat ikkinchi rejaga surildi. Bu borada andak bo'lsada o'z fikr-xulosalariga ega bo'lган maorif xodimlari qatag'on qilindilar. Bu sovetlar hukumatining Milliy mustamlaka va qaram o'lkalarda yurgizgan siyosati mohiyatining tarkibiy qismidir. Sovetlar mahfiy xizmati milliy mustamlaka va qaram mamlakatlardagi o'z qo'g'irchoq hukumat boshliqlariga yuborgan «mutlaqo maxfiy» (Moskva, 06,1947, K AAG`SS 113, IK (003)47) buyrug'ida xalq ta'limi va oliy ta'lim masalasida quyidagicha ko'rgazma bergen edi: «Boshlang'ich va o'rta maktablarda, bundan ham avval, o'rta va oliy o'quv yurtlarida o'ta e'tibor qozongan o'qituvchilar ishdan chetlashtirilishi lozim bo'ladi. Ularning o'mniga biz tomonimizdan belgilanadigan kishilarni qo'yish kerak...»

Oliy o'quv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilishga erishish kerakki, ular xalqning omi qatlamidan bo'lishsin va ularni mutaxassislik bo'yicha chuqur bilim olish emas, balki faqat diplom qiziqtirsin»<sup>1</sup>. Sovetlar hukumronligi yillarida O'zbekistonda ham ana shu ko'rgazmada kelib chiqqan holda xalq maorifiga, oliy va o'rta maxsus ta'limga rahbarlik qilindi. Bu hol albatta o'zining salbiy natijalarini bermay qolmadи.

O'zbekiston xalq ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarmoqlari qoldiq printsipiga asosan mablag' bilan ta'minlanganlar. Shu boisdan ular juda nochor moddiy ba'zaga ega edi. Respublikada ta'lim uchun ajratilgan kapital mablag'ning o'sish dinamikasi bu fikrni yaqqol isbotlaydi. Ta'lim uchun ajratilgan kapital

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 391-392.

mablag' hajmi 1960 yilda 282 million so'm, 1970 yilda-951 million, 1980 yilda-1,925 million, 1985 yilda-2,619 million va 1987 yilda 2,935 million<sup>1</sup> so'mga teng bo'lган. Boshqacha aytganda fan, madaniyat va xalq ta'limga sarflanadigan xarajatlarni ja'mini birga qo'shib hisoblaganda ular byudjet mablag'larining 2,7 foizdan nariga o'tmas edi. Holbuki Amerika Qo'shma Shtatlaridek yuz yillar davomida yuksak taraqqiyot darajasida kelayotgan mamlakatda 1989 yilda ta'lim uchun qilingan umumiy xarajatlar 260 milliard dollarga teng bo'ldi, AQSh davlat byudjetining 6,4 foizini tashkil etdi, demakdir. Juda ko'pchilik Evropa mamlakatlari ham ta'lim uchun davlat byudjetining 5,5 foizini sarflaydilar. Hatto Afrika qita'sida joylashgan mamlakatlar ham ta'lim uchun davlat byudjetining 5,4 foizini sariflamoqdalar. Bu O'zbekistonidagi shu maqsad yilida 80-yillarda sarflangan harajatlardan ikki barovar ko'p demakdir.<sup>2</sup> Shu boisdan ham 80-yillarga kelib O'zbekiston umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarmoqlarining moddiy bazasi juda og'ir va nochor ahvolda edi. 1990 yildagi yozma manba'larning ma'lumotlariga qaraganda respublikadagi har to'rt maktabdan biri avariya holatida bo'lган, 2895 sinf xonasi poli, 3302 sinfning shifti bo'lмаган. 50 foiz maktablarida ovqatlanish uchun sharoit, vodaprovod va kanalizatsiya bo'lмаган. 1 million 200 ming o'quvchi ikki smenada, Qoraqalpog'istonda, Toshkent va Farg'ona viloyatlaridagi 35 maktabda darslar uch smenada olib borilgan. Maktablarni yillik ta'mirlash va yangi o'quv yiliga tayyorlash ishlari asosan otaliq tashkilotlari va ota-onalar ajratadigan sadaqa mablag'lar hisobidan amalga oshiriladigan bo'lib qoldi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tarmoqlarining ahvoli ham bundan afzal emas edi. Maorif tarmoqlarining o'quv-texnika va metodik bazalarining nochorligini gapirmasa ham bo'ladi.

Maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan fanlarning o'quv dasturlari Moskovda tayyorlanar va O'zbekiston sharoitiga moslashtiriladi va u batamom mustamlakachi sovetlar manfaatiga xizmat qilar edi.

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 391-392

<sup>2</sup> Ўша асар, – B. 393.

Maktablar, o'rta maxsus va oliy o'quv yurti o'qituvchilarining ustoz, tarbiyachi va pedagog sifatidagi obro'-e'tibori tushib ketdi. Bu jarayon ayniqsa 50-yillarning ikkinchi yarmi va 60-yillardan e'tiboran kuchaydi. Xususan bu hol 70-80 yillarda keskin tus oldi. 1987 yil may oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston o'qituvchilarning VII s'ezdida keyingi ikki yil davomida 23 mingga yaqin o'qituvchi pedagoglik ishini tashlab ketganligi ta'kidlandi. Yosh yigit-qizlar o'rtasida pedagoglik kasbiga qiziqish havasi so'nib ketdi. Buni shu fakt isbotlaydiki, o'zлari pedagoglik kasbi bo'yicha o'qishga kirgan bo'lsalarda Qarshi, Sirdaryo, Termiz, Xorazm va boshqa joylardagi pedagogika institutlarning 20 foiz birinchi kurs studentlari o'tkazilgan savol-javoblarda tasodifan mazkur kasbni tanlaganliklarini bildirganlar. Beshinchi kursda esa studentlarning 30 foizdan ko'prog'i pedagog bo'lib ishlashni hohlamaymiz deb javob qaytarganlar. Termiz, Qarshi (1983-1987 yillar), Farg'ona, Xorazm (1984-1988 yillar), Sirdaryo, Jumhuriyat rus tili va adabiyoti pedagogika instituti (1984-1989 yillar)ini bitiruvchi kurs studentlaridan 40 foizi boshqa tashkilotlarda mehnat qilishni hohlaydi, 46,4 foizi esa o'z ixtisosidan ko'ngli qolgan. Ettita pedagogika oliy o'quv yurtlari studentlarining 31 foizi ota-onalar maslahati bilan (1986 yil) pedagoglik kasbini tanlagen. O'zi tanlagen kasb-hunarga mehr-havas va qiziqish bo'lmagach, tayyorlanayotgan kadrlarning sifat darajasi to'g'risida gap yuritish albatta mantiqsizdir. Shu boisdan ham Jizzax, Qarshi, Buxoro pedagogika institutlari bitiruvchilari bilan dastur hajmida yozma ish olinganda ularning teng yarmi qoniqarsiz baho olgan. Farg'ona institutini bitirib, maktabda matematikadan dars berayotgan 100 nafar o'qituvchidan maktab dasturi hajmida yozma ish olinganda ularning 80 foizi, Jizzaxda esa 1988-89 o'quv yilida 60 nafar o'qituvchining hammasi qoniqarsiz baho olgan.

Maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilar obro'sining tushib ketishiga olib kelgan omillar va sabablar nimalardan iborat?

**Birinchidan**, moddiy omildir. 50-yillardan e'tiboran o'qituvchilik va pedagoglik kasbiga nisbatan sovetlar hukumatining munosabati salbiy tomonga keskin o'zgardi, ularning mehnatiga to'lanadigan haq jiddiy kamaytirildi.

**Ikkinchidan**, moddiy ishlab chiqarish birinchi darajali vazifa degan bahonada va ta'limni ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish degan vaj-karson asosida maktab va oliy o'quv yurtlarida ta'lim tarbiya bo'shashib ketdi, u ikkinchi rejaga surib qo'yildi. Maktab o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarining talabalari bir necha oy lab paxtani yagonalash, qator oralariga ishlov berish, terim mavsumiga va chorva uchun em-hashak tayyorlash kabi ishlarga surunkali safarbar qilindilar. O'qituvchi-pedagoglar esa jamoa va davlat xo'jaliklarining qo'shimcha ishchi kuchiga aylandilar, savodsiz va chalasavod zveno va brigada boshliqlari ular ustidan xo'jayin bo'lib oldilar.

**Uchinchidan**, o'qituvchi-pedagoglar mehnatiga munosib haq to'lanmaslik va moddiy etishmovchilik mакtablar va oliy o'quv yurtlarida ta'magirlik illatini keltirib chiqardi. Bu hol o'z navbatida ildiz otib har qanday jamiyatni ham ichidan g'orat qiluvchi, poraxo'rlik deb atalmish vaboni gazak otishiga sabab bo'ldi. Natijada «ustoz otangdan ulug'» degan muqaddas so'z o'z mantig'ini yo'qotdi, yosh yigit-qizlar ko'zi oldida tarbiyachi murabbiy-ustoz eng pastkash, ta'magir va poraxo'r kimsaga aylandi. Yoshlar bunday «ustozlar» tarbiyasi va ta'limiga qiziqish u yoqda tursin, undan nafrat va hazar qiladigan bo'lib qoldilar.

Sovetlar hukumati maktab va oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonida buyuk millatchilik siyosatini avjiga mindirdi, ruslashtirish siyosatini yuritdi. Rus tilini o'rganish uchun ajratilgan soatlar bir necha barobar oshirilib, ta'limning barcha tizimlarida bu tilni «ikkinci ona tili», «dohiy Lenin so'zlagan til» sifatida o'rganish majburiy qilib qo'yildi, u davlat imtihonlari va oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga kiritildi. Aksariyat oliy o'quv yurtlarida darslar asosan rus tilida olib borildi. Hatto ijtimoiy-gumanitar fanlarni ham rus tilida o'qitish «*tashabbusi*»ni ko'tarib chiqqan jamoalar bo'ldi.

Maktabdan tortib oliy o'quv yurtlariga qadar mahalliy millat vakillariga rus tilini o'rganish majburiyati yuklandi. Rus tilida so'zlashuvchi millatlarimiz o'g'il-qizlariga maktab oliy o'quv yurtlarida o'z istak-xoxishlariga ko'ra chet tillardan birini tanlab egallashliklari uchun barcha shart-sharoitlari yaratib berilgan bo'lsa, mahalliy millat vakillari uchun bunday imkoniyat yo'q edi. Ular oliy maktabda

ham faqat rus tilini o'rganishlari kerak edi. Umumta'lim va oily o'quv yurtlarida majlislar, yig'ilishlar rus tilida olib boriladigan bo'lib ketdi. Bu majlis va yig'inlarda ona tilida so'zlash qoloqlikka va millatchilikka yo'yildi. Maktablar, oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlarida haftada bir marta rus tili kunlari tashkil etish odat tusiga aylandi. Shu kuni yigit-qizlar o'zaro faqat rus tilida muomala qilishga majbur edilar, o'z ona tillarida esa gaplashishlari mumkin emas edi. Maktablar, oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi barcha binolar, xonalar va yotoqxonlar asosan rus tilida tashviqot va targ'ibot ko'rgazma qurollari va shiorlar chaqiriqlar bilan bezatilar edi. Rus filologiya fakultetlarida milliy guruahlarga stipendiya 15 foiz qo'shib berilishi joriy etilgandi. Bu ishlarning hammasi birga qo'shilib milliy manfaat va qadriyatlarimizning toptalishi va oyoq osti bo'lishiga sabab bo'ldi. Kompartiya va Sovetlar esa munofiqona siyosat yurgizib respublika rahbariyatiga qarshi har xil tuhmat va bo'htonlar uyushtirib, o'zlarini O'zbekiston xalqlarining Manfaat va maqsadlari uchun kurashuvchi qilib afkor ommani gangitib, fitnachilik o'yinlarini amalga oshirib turdilar. Bu «o'yinlar» maorif va ta'lim sohasida ham qo'llanildi.<sup>1</sup>

Bu o'rinda Alisher Azizzo'jaevning «Chin o'zbek ishi»<sup>2</sup> kitobida keltirilgan dalillarni eslash maqsadga muvofikdir.

«Paxtakor» o'yinidan keyin boshlangan katta o'yin davrida V.Smirnov degan kimsa nomidan SSSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi N.V. Podgorno'yga, «Pravda» gazetasi redaktsiyasiga, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari Sh.Rashidov nomiga arizalar yo'llanadi.

Ana shu arizalardan birida dag'dag'a ohangida shunday deyilgan: «Hurmatli o'rtoq Rashidov! Biz aynan siz rahbarlik qilayotgan O'zbekistonning siyosiy hayotida milliy masalalarda vujudga kelayotgan xavfli tendentsiyalardan sizni ogoh qilishimiz zarur». Bu xatda o'zbek xalqi nafaqat millatchilikda ayblandi, balki milliy kadrlarni, o'zbek ziyorilarini, yurtimiz olimlarini, o'zbek talabalarini g'irt savodsizlikka chiqarib qo'yilgandi. «Respublikaning barcha oliv o'quv

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.573

<sup>2</sup> Азизхўжаев Алишер. Чин ўзбек иши. «Академия» нашриёти. Тошкент, 2003, - Б. 142.

yurtlaridan o'zbek bo'limgan talabalar siqib chiqarilib, ularning o'rmini o'zbek talabalar egallamoqda» degan tuhmat ham bildirilgandi.

Tekshirilganda shu narsa aniqlandiki, Toshkentdagi to'rt oliy ta'lim muassasi-Tekstil va engil sanoat instituti, Xalq xo'jaligi instituti, Temir yo'l transporti injenerlari hamda aloqa elektromexanika institutlarining kunduzgi bo'limlarida hammasi bo'lib, 11.194 talaba tahsil olayotgani, shulardan 5836 tasi yoki 52,2 % mahalliy millatga mansubligi, qolgan 5358 talaba yoki 47,8 foiz evropa va boshqa millat vakillari ekani ma'lum bo'ldi<sup>1</sup>. Oxirgi to'rt yil ichida jami 1945 nafar talaba o'qishdan chetlashtirilgan bo'lsa, shulardan 793 kishi, yoki 53% mahalliy millat vakillari edi. 1969 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning oliy o'quv yurtlarida jami 12330 nafar ilmiy-pedagogik xodimlar mehnat qilayotgan bo'lsa, ulardan 6184 nafari, ya'ni 53,3% mahalliy millat vakillari bo'lган. Ushbulardan kelib chiqib A.A.Azizzxo'jaev shunday yozadi: «Garchi respublika aholisining yarmini rusiy zabon aholi tashkil qilmagan bo'lsa-da, o'quv-ilmiy muassasalaridagi salkam 50 foiz ish o'rnlari ular tomonidan egallanganligini yana qanday izohlash mumkin? (Millionlab o'zbek xalqining ayni pallada, har jabhada toptalayotgan milliy manfaatlari to'g'risida birov miq etib og'iz ochib ko'rsinchi?)»<sup>2</sup>.

SHu bilan birga, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiyaviy ishlarni mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi; mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish o'rniga barcha oliy o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

O'quv jarayoni uchun muhim bo'lган demokratik va ijodiy jihatlar inkor etildi. Natijada oliy ta'lim tizimida mas'uliyatsiz, tashabbussiz, loqayd, «o'rtamiyona» mutaxassislar tayyorlash mexanizmi yuzaga keldi. Markaziy hukumat siyosiy

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.575

<sup>2</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 396-397.

rahbariyati xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini, hatto ilm-fanni ham mustabid tuzumni mustahkamlash va uni takomillashtirish uchun safarbar qildi. Ittifoq xalq xo‘jaligi majmuida barcha milliy respublikalarning alohida vazifasi belgilab berilganidek, har bir respublikaning ilm-faniga ham alohida yo‘nalishlar ko‘rsatildi, ular respublikaning ittifoq miqyosidagi vazifasidan kelib chiqar edi. Jumladan, urush yillarida tashkil etilgan O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi zimmasiga qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining, eng avvalo pax- tachilikning mahsuldorligini oshirish, uni mexanizatsiyalash, g‘o‘zani parvarish qilish agrotexnikasini, urug‘chilikni yaxshilash, chorva mollarining zotini yaxshilash, suv resurslaridan ratsional foydalanish kabi muhim va dolzarb muammolarni hal qilish vazifasi yuklandi. Respublika olimlari xalq xo‘jaligi uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan 230 dan ko‘proq mavzuni ishlab chiqish bilan shug‘ullandilar. SHuningdek, fan va texnika yutuqparini sanoat va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga joriy qilish ishlari ham yo‘lga qo‘yildi. Masalan, ipakchilik sanoati ilmiy-tadqiqot instituta xodimlari tomonidan kashf etilgan, pilladan ipak olishni tezlashtiradigan avtomat stanok qisqa muddatlarda o‘zlashtirildi va ishlab chiqarishga joriy qilindi. SHu asosda pilladan ipak olishda ishlatilib kelgan qo‘l mehnatini mashina bilan almashtirish vazifasi jahonda birinchi bo‘lib O‘zbekiston olimlari tomonidan hal etildi.

50—60-yillarda O‘zbekistonda yadro fizikasi, kimyo, o‘simlik xom ashyosi va paxta, suv problemalari hamda gidrotexnika, neft va gaz, o‘lka meditsinasi, astronomiya, bioximiya, kibernetika, elekrotexnika, seysmologiya, falsafa va huquq, san’atshunoslik, arxeologiya, Qoraqalpog‘iston kompleks ilmiy tadqiqot instituta kabi katta ilmiy dargohlar tashkil qilindi. 1959 yilda O‘zbekistonda birinchi atom reaktori ishga tushirildi. Bu institatlarda ilmiy tadqiqotlar blan bir qatorda ilmiy kadrlar tayyorlash ham yo‘lga qo‘yildi. Ilmiy kadrlar tayyorlash asosan aspirantura orqali amalga oshirildi. Aspi- rantlar soni yildan-yilga oshib bordi. Birgina Fanlar aka- demiyasida ularning soni 1958 yilda 370 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1973 yilga kelib 839 kishiga etdi. iroq fan doktorlari tayyorlash, 1956 yilda respublikada doktorantura tizimining bekor qilinishi natijasida yuqori malakali

ilmiy kadrlar tayyorlashda jidkiy qiyinchiliklar tug‘dirdi.

O‘zbekiston olimlaryning hisoblash matematikasi va tex-nikasi, radiotexnika, qattiq jismlar fizikasi va chala o‘tkazgichlar sohasidagi tadqiqotlari muhim natijalarga ega bo‘ldi.

YAdro fizikasi problemalarini, kosmik nurlarni, samo-viy jismlarni, ehtimollik nazariyasini va matematik statistikani o‘rganishda, geofizikaning turli sohalarida O‘zbekiston olimlari katta yutuqlarga erishdilar. Akademiya olimlari geologiya fanining nazariy masalalarini hal etishga ma’lum darajada hissa qo’shdilar. Er bag‘rida yonilgi va metall qazilmalar paydo bo‘lishi va joylanishining qonuniyatlarini ochib berishda geologlar erishgan yutuqlar Gazli hududida tabiiy gazning katta konlarini, CHotqol-Qurama tizma toglarida, SHimoliy Nurota va shu kabi joylarda rangli va nodir metallar konlarini topish uchun asos bo‘ldi.

70—80-yillarda mineralogiya va geoximiya, matematika, alkaloidlar kimyosi, nazariy va amaliy mexanika, biologiya, geofizika va boshqa fanlar sohasidagi tadqiqotlar muvaffaqiyatli davom ettirildi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.575-576.

### **III.BOB. XX asrning 50-80 yillarda fan va adabiyotning ta`lim tizimidagi roli**

1946-1990 yillarda Sovetlar hukumati O'zbekistonda ulug' saltanat manfaatlardan kelib chiqqan holda fanning turli tarmoqlarini rivojlantirishga e'tiborni qaratdi. Buni biz fan tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlarini ko'zlab davlat byudjetidan ajratilgan mablag'larning o'sib borishi misolida ko'rishmiz mumkin. Agar 1970 yilda fan uchun ajratilgan mablag' 30,1 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1980 yilda u 50,3 million, 1985 yilda-54,7 million va 1987 yilda esa 67,2 million so'mni tashkil etgan. O'zbekistonda ilmiy xodimlar soni ham o'sdi . Ja'mi bo'lib fanning turli sohalarida mehnat qilgan xodimlar 1960 yilda 10 ming 329 kishi bo'lgan bo'lsa, bu raqam 1970 yilda-25.244, 1980 yilda-35.288, 1985 yilda-38.093 va 1987 yilda esa 39.106 kishiga teng bo'ldi. Shu davrda aspiranturaga qabul qilish ham o'sdi. Agar 1960 yilda aspiranturada 1.432 aspirant o'qigan bo'lsa, 1987 yilda ularning soni 3050 taga etdi. Ammo tashqi ko'rinishdan kishini o'ziga jalgan qiladigan bu chiroqli raqamlar ortida millat va yurt taqdiri uchun dahshatli omillar va mazmunlar yashirin pardaga o'ralgan edi. Ular nimalardan iborat?

**Birinchidan**, sovetlar hukmronligi yillarida o'zbek tili fundamental ilm-fan tili sifatida O'zbekistonda o'z ahamiyatini yo'qotdi. Barcha ilmiy ishlar faqat rus tilida olib boriladigan bo'ldi. Fan nomzodligi, doktorlik dissertatsiyalari, hatto o'zbek tili va adabiyoti masalalariga oid dissertatsiyalar ham rus tilida yozilib, rus tilida himoya qilinadigan bo'lib qoldi. Ish shu darajagacha borib etdiki, O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida studentlar ilmiy to'garaklarida o'zbek tilida tayyorlangan ilmiy ishlar tanlov-konkurslarga qabul qilinmas edi.

**Ikkinchidan**, mahalliy millat ziyolilari o'z ona tillarida erkin ilmiy mushohada va fikrlash asosida ijod qilishdan mahrum bo'ldilar, ular o'z qobiliyat va imkonlarini to'la qonli ko'rsata olmadilar. Bu hol o'z navbatida bir vaqtlar jahon fani va madaniyati beshigini tebratgan Al Xorazmiy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Farobi, Ulug'bek, Bobur singari behisob qobiliyat sohiblarini bergen yurtga XX asrda ham ularning ishini munosib davomchilarini tarbiyalab

etishtirishga jiddiy to'sqinlik qildi. Ammo shunga qaramasdan urushdan keyingi yillarda ham ilm-fan sohasida barakali ijod qilib millatning shon-shuhratini dunyoga tanitgan siymolar xalqimiz orasidan etishib chiqdi. Tarix va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ijod qilgan Ya.G`G`ulomov, R.N.Nabiev, I.Mo'minov, X.Sulaymonova, O.Aminov, E.Yusupov, I.Iskandarov, B.Ahmedov, A.Asqarov, R.X.Aminova, geologlar H.M.Abdullaevlar, I.H.Hamraboev, G.Mavlonov, biokimyogar Yo.To'raqulov, kimyogarlar O.S.Sodiqov, M.N.Nabiev, S.Yu.Yunusov, fizik vav matematiklar T.N.Qori-Niyoziy, T.D..Sarimsoqov, U.O.Orifov, S.Sirojiddinov, S.Azimov, V.Qobulov, texnika fanlari bo'yicha ijod qilgan M.T.O'rozboev, biologiya va botanikada Z.Qodirov, A.Dadaboev, A.Imomaliev, S.Yo'ldoshev va boshqalar shular jumlasidandir.<sup>1</sup>

O'zbekistonda ijtimoiy fan taraqqiyotiga, xususan vatan tarixi va arxeologiya fani rivojiga beba ho hissa qo'shgan olimlardan biri, tarix fanlari doktori, akademik **Yaxyo G`ulomovdir (1908-1977)**. U birinchi o'zbek arxeolog olimlardan hisoblanadi. Yaxyo G`ulomov 1943 yilda «Xiva va uning yodgorliklari» mavzuida tarix fanlari nomzodligini olish uchun dissertatsiyani himoya qildi, 1950 yilda esa «Xorazmning sug'orish tarixi, qadimgi zamonlardan hozirgacha» deb nomlangan muammo bo'yicha doktorlik ilmiy darajasini oldi. Tarixchi olim 1936 yildan boshlab Toshkent, Buxoro, Farg'ona va boshqa arxeologik guruhlarga boshchilik qildi. 1938 yildan e'tiboran akademik S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tarkibida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan. U 4 tomlik «O'zbekiston SSR tarixi», 2 tomlik «Samarqand tarixi» kitoblarining mualliflaridan biri. Yaxyo G`ulomovning O'zbekistonnig sug'orilish tarixiga doir ilmiy ishlari qadimgi dehqonchilik vohalari (Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo va boshqalarning qadimgi o'zanlari)ni aniqlash va undan xalq xo'jaligi maqsadlari yo'lida foydalanishda katta yordam bermoqda. Uning Zarafshon va Farg'ona vodiylarida, shuningdek Toshkent vohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlari O'zbekistonda tosh davrini o'rganishda fanga katta hissa qo'shdi. Bu tabarruk

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 397-398.

inson, fan zahmatkashini muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov mana shunday ta'riflagan edi: «*Men akademik Yahyo G`ulomovni yaxshi bilardim. U mustaqil fikrga ega bo'lgan, kerak bo'lsa, eng yuqori lavozim egasiga yoqmaydigan to'g'ri gapni dadil ayta oladigan odam edi. Tarixchilar yaxshi biladilar, odatda tepaliklar qa'rida tarixiy obidalar, butun bir shahar yastangan bo'ladi. Sovet davrida faqat tomlardagina paxta ekilmay qolgan bir paytda ana shunday tarixiy tepaliklarni ham tekkislab paxta dalasiga aylantirish siyosati avj olganda bunga qarshi chiqqan olim Yahyo G`ulomov bo'lganini men yaxshi eslayman. Bu fazilati tufayli taz'yiq ko'rganini ham eshitganman. Lekin adolatni hamma narsadan ustun bilgan, vatanparvar odam shunday bo'ladi. Ana shunday odamlar hayoti bizga ibrat maktabi bo'lmog'i lozim»<sup>1</sup>.*

Mana hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Tarix instituti huzurida bu fan kishisi Yahyo G`ulomov nomidagi «o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixini o'rganish» respublika ilmiy seminari samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Prezident Islom Karimov farmoni bilan akademik Yahyo G`ulomov «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

Jamiyatshunoslik fanining ajoyib darg'alaridan yana bittasi falsafa va tarix ilmining bilimdoni akademik **Ibrohim Mo'minov (1908-1974)** bo'lgan. U O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlarning jonkuyar rahbarlaridan biri edi. 50-yillarning oxiri 70-yillarning birinchi yarmida Ibrohim Mo'minov rahbarligida falsafa O'zbekiston tarixi, adabiyotshunoslik, madaniyat masalalariga oid juda ko'plab asarlar, o'quv darsliklari, qo'llanmalari va to'plamlar chop etildi. Xususan u o'tmish tarixiy merosimizni o'rganish masalalariga alohida e'tibor berdi. Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiyy, Ahmad Donish kabi ulug' siymolar asarlarining keng o'quvchilar ommasiga etib borishida Ibrohim Mo'minovning xizmatlari benihoyat kattadir. Bu bejiz emas albatta. Chunki elparvar va vatanparvar olim yoshlikdan xalqining o'tmish tarixiy

<sup>1</sup> Каримов Ислом. Тарихий хотирсиз келажак йўқ. «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти . 1998, - Б. 27-28.

merosini o'rganish va uni tashviqot-targ'ibot qilish bilan qiziqdi. 1946 yildayoq allomaning «Mirzo Bedilning falsafiy qarashlari» asari matbuot yuzini ko'rdi. So'ngra, u «O'zbekistonning XiX asr oxirida va XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixidan» deb nomlangan mavzuda doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

El ardoqlagan va sevgan alloma Ibrohim Mo'minovga 1968 yilda matbuotda bositgan «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi roli va o'rni» risolasi katta hurmat va obro' keltirdi. Chunki o'z davri uchun bu ish buyuk jasorat edi. Kommunistik firqa mafkurasi asosida Sovetlar tarix fanida Amir Temurni «bosqinchi», «qonxo'r», «jallod», «kesilgan kalla suyaklaridan minoralar quadirgan johil» bir shaxs sifatida yoritgan bir paytda sohibqironning xalqimiz tarixida tutgan o'rni va roliga haqqoniy baho berishlik har qanday vallomadning qo'lidan keladigan ish emasdi.

O'z xalqining marb va jasur o'g'loni Ibrohim Mo'minov 1968 yilda «Temur tuzuklari» va 1972 yilda Sharafiddin Ali Yazdiyning XV asrda yozilgan «Zafarnoma» asarining faksimile nusxasini nashr ettirish kabi nihoyatda savobli ishlarga ham bosh qo'shib tashkilotchilik qildi. Bu g'oyatda tahsinga sazovor ishlar O'zbekiston keng ilmiy jamoatchiligi va omma tomonidan qizg'in kutib olingan bo'lsada, Ibrohim Mo'minov shaxsiy dushmanlari va raqiblarining g'ashini keltirdi, ayniqsa bu ish Markazdagi shovinistik buyuk davlatchilik g'oyasi bilan ongi zaharlangan murtadlarga yoqmadidi. Olimga qarshi boshlangan xurujga shaxsan KPSS Markaziy Qo'mitasi boshchilik qildi va Ibrohim Mo'minovga «O'tmishga g'ayri ilmiy yondoshgan», «O'tmishni ideallashtirgan», «g'oyaviy-siyosiy xatoga yo'l qo'ygan» degan soxta aybnomalar qo'yildi. O'zining sof va musaffo ongi, tarixiy-falsafiy vijdoniga chirkin, axloqiy tuban g'oya va qarashlarini singdira olmagan buyuk olim og'ir, uzoq davom etmagan kasallikdan so'ng 1974 yil 22 iyulda vafot etdi. Ulug' alloma vafot etgan bo'lsada, uning siymosi xalqining qalbida abadiy tirikdir.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 399-401.

Vatan tarixining eng yosh, hali uncha taraqqiy etmagan tarkibiy qismlaridan biri-bu manbashunoslik fanidir. Bu sohada Ibodulla Odilov (1872-1944), Sodiq Mirzaev (19885-1961), Abdulla Nosirov(1899-1988), Abdulla Juvonmardiev, Yunusxon Hakimjonov, Abdulfattoh Rasulov, Abdulqodir Murodov, Solih Mutualibov va boshqalar barakali va katta ilmiy qidiruv ishlarini olib bordilar. Manbashunoslik ilmida o'zining serqirra va barakali ijodi bilan shuhrat topgan otaxon tarixchi olimlardan biri akademik **Bo'riboy Ahmedovdir (1924-2002)**. U Andijon viloyatining Qo'rg'ontepaga tumaniga qarashli Qorasuv qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan, og'ir va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Bo'rivoy aka yozma tarixiy manbalarni o'rghanish, Vatan tarixining juda ko'plab dolzarb muammoalrini izlash va ommalashtirish bo'yicha qalam tebratdi va xalq hurmatini qozondi. «O'zbeklarning kelib chiqish tarixidan» (1962), «Ko'chmanchi o'zbek davlati» (Moskva, 1965), «Ulug'bek» (1964), «Xondamir» (1965), «Mahmud ibn Vali» (1966), «Bahr ul-asror» (1977), «Balx tarixi» (1982), «XV-XVIII asrlar O'rta Osiyo tarixiy-geografik adabiyoti» (1985), «Ulug'bek» (1990) va boshqa qariyb 300 nomda e'lon qilingan ilmiy monografiya, risola va maqolalar olim shuhratini oshirdi. Akademik B.Ahmedov uch jildlik «O'zbekistonning yangi tarixi» yaratish bo'yicha ijtimoiy-gumanitar kengashga raislik qildi va bu kitoblar 1996-1999 yillari tayyorlanib, 2000 yilda nashr etildi. Bo'riboy Ahmedovning manbashunoslik bo'yicha yozgan asarlari na faqat O'zbekistonda hatto bir qator chet mamlakatlarda ham tan olingan. Jumladan olimning «O'rta Osiyo tarixiy-geografik adabiyoti»ga xorijiy mamlakatlarda o'ndan ortiq taqrizlar e'lon qilindi. Chex olimi Irji Bechka, Ozarbayjon FA akademigi Ziyo Bunyodov, qirg'iz olimlari U.Q.Qoraev, M.B.Jamg'irchinov mazkur kitobga manbashunoslikning katta yutug'i sifatida baho berdilar. Darhaqiqat muallif ellikka yaqin yozma obidalarni tahlil qilish va xulosalash asosida shayboniyalar, ashtarxoniyalar va dastlabki mang'itlar davrida O'rta Osiyo tarixi, madaniyati va ijtimoiy hayoti xaqida fikr yuritadi. Ammo zahmatkash va vatanparvar olimning og'ir va mashaqqatli ilmiy faoliyati sovetlar davrida qadrlanmadı. Istiqlol tufayli bu

olimning qadr-qimmati o'z joyiga qo'yildi. U «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlandi.

**H.M.Abdullaev (1912-1962)** buyuk ershunos va ma'danshunos olim, o'zbek



xalqining ulug' farzandi, mutafakkir va davlat arbobi. U qisqa umr ko'rigan bo'lsada, o'zidan katta meros qoldirdi. Vafotidan so'ng Habib Abdullaevning etti jildlik saylangan asarlari chop etildi. Uning birinchi jildida allomaning 1937-1947 yillarda yaratilgan «Sheellitli skari konlari»ga doir maqolalari to'plangan (1964): ikkinchi jildiga «O'rta Osiyoning Sheelitli skari konlari geologiyasi» (1964): uchinchi jildiga «Ma'danlanishning granitoid intruziyalari bilan genetik bog'liqligi» (1964): to'rtinchi jildiga «Daykalar va ma'dan» (1965): beshinchi jildiga «O'rta Osiyo magmatizmi va ma'dani» hamda «ma'danli-petrografik provintsiyalari» nomli monografiyalari (1965): oltinchi jildiga «Ma'danshunoslik konlarini qidirib topishning nazariy asosi» darsligi (1967) va nihoyat ettinchi jildiga Habib Muhammedovichning iqtisod hamda tarixga oid maqolalari, ilmiy publitsistik asarlari kiritilgan (1969)<sup>1</sup>. Ja'mi bo'lib buyuk olim 130 dan ortiq ilmiy asarlar yozgan.

Habib Abdullaev faqat olimgina emas, ayni paytda mohir tashkilotchi va davlat arbobi ham bo'lган. U yigirma etti yoshida 1941 yilda Politexnika institutida rektorlik lavozimiga ko'tarildi. H Abdullaev ikki muddatga O'zbekiston FAning prezidenti etib saylandi. Mashhur o'zbek olimini dunyo tan olgan. 1960 yilda Frantsiya geologiya va Buyuk Britaniya mineralogiya jamiyatlari uning bilimiga tan berib haqiqiy a'zolikka qabul qilgan edilar. Dunyoning Meksika, Finlyandiya, AQSh, Frantsiya, Hindiston, Italiya, Chexoslovakiya, Xitoy, Shvetsariya va boshqa malakatlarida uyushtirilgan nazariy-ilmiy anjuman va

<sup>1</sup> Асрор Самад. Олимнинг ҳаёт йўли.-Т.: Камалак-Хазина, 1994, - Б. 53-79.

simpoziumlarida ma'ruzalar bilan qatnashgan Xabib Abdullaev o'zbek fanining shuhratini jahonga tanitdi.

1943 yilda Meksikada Jahon geologlarining XX kongressi bo'ldi. Ushbu xalqaro anjumanda o'zbek olimi ham ilmiy ma'ruza bilan qatnashgan edi. «Men minbardan tushishim bilan,-deb eslaydi H.Abdullaev,-Amerika delegatsiyasining boshlig'i yonimga kelib qo'limni siqdida: Janob Abdullaev Siz kim bo'lasiz?-deb so'rab qoldi. Shunda men: ...o'zbek geologi bo'laman,-dedim. U esa: Yo'q. Siz o'zbek emassiz. Siz tayyorlangan (podstavnoy) odamsiz, xali o'zbeklardan Sizdek olimlar etishib chiqqan emas,-deb qoldi. Shunda men faxr bilan baralla: «Men haqiqiy o'zbek farzandiman», -deb javob berdim».

Habib Abdullaevning «Rudalanishning granitoid intruziyalar bilan genetik bog'liqligi» va boshqa juda ko'plab asarlari xorijiy tillarda tarjima qilingan. «Bu asar,-deb yozgan edi T.Shoyoqubov, M.Ahmedov,-o'zbek fanini H.Abdullaev siymosida jahonning eng ilg'or fan cho'qqilariga olib chiqdi. Jahon ilm ahli dunyoda O'zbekistondek jumhuriyat borligini: Beruniyning vatanida hali ilm so'nmaganini yana bir bor his etdilar»<sup>1</sup>.

Habib Abdullaev o'zbek fanining haqiqiy jonkuyari edi. Shu boisdan ham uning Prezidentlik davrida yuzlab fan nomzodlari va fan doktorlari etishib chiqdi. Chunki buyuk alloma millatning kelajagi va istiqboli yuqori malakali milliy kadrlarga bog'liq ekanligini yaxshi bilardi. H.Abdullaev rahnamoligida aspirantlar soni o'n baravar ko'paydi va 1000 kishiga etdi. «Moskvaga,-deb eslagandi yozuvchi, akademik Izzat Sulton,-qisqa muddatda to'rt yuzdan ortiq o'zbekni aspirantura va doktaranturaga yuborganda, Habib «to'g'ri yo'ldan» bormadi, chunki Respublikada eng muhim amallarda o'tirgan shovinistlarga bu ish yoqmas edi. Shovinistlar g'aflatda qolib, bu voqeadan ham kech xabardor bo'ldilar va alamlaridan «tirsagini tishlab» qoldilar. Keyin Habibdan bu ishi uchun undan beshavqat o'ch oldilar. Shu ishi va o'zbek xalqining manfaatlarini ko'zlab qilgan ko'pgina boshqa ishlari uchun, Habib O'zbekiston Fanlar Akademiyasi

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 402-403.

prezidentligi vazifasidan qo'qqisdan olib tashlandi... Bu Markaziy Qo'mitada ikkinchi (aslida esa-birinchi) kotibi bo'lib ishlagan va Habib Muhammedovich tomonidan «tegirmonchi» deb nom berilgan Melnikovning ishi. Ashaddiy shovinist, o'zbek xalqining sodiq farzandidan ana shu yo'l bilan qasos oladi».

Noyob qobiliyat egasi, buyuk olim va tashkilotchi davlat arbobi Habib Abdullaevni ishdan olishgach uni hatto Akademianing Prezidiumi a'zolari qatorida ham qoldirmadilar, biror bir ilmiy tadqiqot institutida rahbarlikka ham lozim topmadilar. Albatta buadolatsizlik va noxaqliklar allomaning salomatligiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. U 1962 yil 20 iyunda vafot etdi.

Buyuk olimning nechog'lik ulug'ligini uning zamondoshlari so'zlari bilan tasavvur qilishning o'zi kifoya deb hisoblaymiz:

«Agar Alisher Navoiy she'riyat dunyosining «hoqoni» bo'lgan bo'lsa, Habib Muhammedovich esa fan sohasida O'rta Osiyo metallogenistlarining (ma'danshunoslari) «sulton» edi».

Hayrullo Rahmatullaev-geologiya, mineralogiya fanlari doktori.

«Geologiyada faqat ikki kishi K.Satpaev va H.M.Abdullaev Ikkalasi ham ishni oddiy quduq qazishdan boshlab akademik, keyin esa prezident darajasiga ko'tarilgan». Akademik D.Nalivkin.

«Habib Abdullaev o'z xalqining faxri bo'lib qoladi. Menga uning harakati negadir bo'ronni eslatadi!» Akademik A..Forsman.

«Habib Muhammedovich Abdullaevdek buyuk insonlar har kuni, har yili tug'ilavermaydi, balki bunday insonlar 100 va 500 yilda bir marta tug'iladi». Akademik Ambartsumyan.

Xullas, o'zbek xalqining millatparvar, vatanparvar o'g'loni akademik Habib Abdullaevning siyimosi mustaqil O'zbekiston yoshlariga yurtga, millatga, fanga, imon va e'tiqodga sodiqlik namunasi bo'lib abadiy qoladi.

O'zbekistonda fizika-matematika fanining yorqin yulduzlaridan biri **Toshmuhammad Alievich Sarimsoqov** 1915 yilda Andijon viloyatning Shahrixon tumanida tavallud topgan. Toshkent davlat universitetining fizika-matematika fakultetida tahsil ko'rgan. Toshmuhamma Alievich Sarimsoqov yirik

jamoat-davlat arbobi bo'lishi bilan birga fizika-matematika fani sohasida O'zbekiston shuhratini uzoq-uzoq o'lkalarga taratgan allomadir. U 1938 yilda «Ikkinchi tartibli differentsial tenglamalar hollari va ba'zi algebraik tenglamalarning asimptomik echimi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi. 1941 yilda boshlangan urush tufayli harbiy xizmatga chaqirilgan Toshmuhammad Alievich O'rta Osiyo harbiy okrugining Toshkentdagi meteorologiya qismida xizmat qildi. Bu erda o'zi uchun yangi soha bo'lган sinoptik xaritani to'ldirish va uning ustida ishlash bilan shug'ullandi. 1942 yilda olim «Holatlari sanoqli bo'lган tasodifiy protsesslarga oid» mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

T.A.Sarimsoqov juda ko'plab darsliklar va qo'llanmalar muallifidir. 1968 yilda uning «O'qituvchi» nashriyotida «Haqiqiy o'zgaruvchining funktsiyalari» darsligi chop etildi. Bunga qadar hali 1954 yilda allomaning «Markov protsesslarining asosi» Moskvada chop etilgan edi. Bu qo'llanma 1982 yilda qayta nashr etildi. Bundan tashqari zahmatkash olimning «funktsional analiz kursi» darsligi 1980 yilda, «Kvantli ehtimollar nazariyasiga kirish» deb nomlangan yirik monografik asari 1985 yilda bosmadan chiqqan. 1989 yilda matbuot yuzini ko'rgan «Hayot dovonlari» deb nomlangan asar allomaning hayot xotiralari va esdaliliklarni o'z ichiga oladi.

Toshmuhammad Alievich yirik fan arbobi va alloma bo'lishdan tashqari juda katta tashkilotchilik qobiliyatiga ega edi. 1943 yildan e'tiboran bir necha bor uzilish bilan Toshkent davlat universitetida rektor, 1946 yildan O'zbekiston FA Prezidenti, 1959 yildan esa O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri lavozimlarida ishladi. U qaerda ishlamasin xalq, millat baxti va ravnaqi yo'lida halol mehnat qildi.

O'zbekistonda Kimyo fanining yirik darg'alaridan biri so'zsiz akademik **Sodiqov Obid Sodiqovich** edi. Uning rahbarligida Toshkent davlat universitetida o'simliklar kimyosi kafedrasi (1946), Paxta sellyulozasi kimyosi va texnologiyasi institutida g'o'za kimyosi laboratoriysi (1954) ToshDUDA tabiiy birikmalar kimyosi muammolari laboratoriysi tashkil etildi. Bu laboratoriyalarda g'o'za tarkibidagi moddalar, O'rta Osiyo yovvoyi o'simliklari tarkibidagi alkoloidlarni

muxofaza qilish sohasidagi katta ilmiy muammolar hal etildi. Alloma rahbarligida O'rta Osiyodagi alkoloidli o'simliklar tekshirilib, 100 dan ortiq alkoloid ajratib olindi, shulardan 70tasi yangi alkoloid bo'lib, ko'pchiligining tuzilishi va konformatsiyasi aniqlandi. G'o'za bargi, chigit, qobig'i, guli va g'o'zapoyadan turli yuqori molekulali uglevodorodlar, spirtlar, sterinlar, triterpenlar, uglevodlar, shuningdek A, E, R, G` kabi vitaminlar ajratib olindi. Ptakon kislota olishning arzon usuli ishlab chiqilishi sun'iy jun (nitron) olish sanoatining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Akademik Sodiqov o'z shogirdlari bilan bir qancha tabiiy birikmalar: alkoloidlar, polifenollar, yog' kislotalari, uglevodorodlar, fosfatidlar va boshqalarni o'rganishda katta yutuqlarga erishdi. Ayniqsa, g'o'za tarkibidagi moddalar kimyosi va stereokimyosini o'rganishga katta e'tibor berildi. G'o'zadan 80 dan ortiq moddalar ajratib tekshirildi, bularning ko'pchiligi ilgari topilmagan yangi moddalar edi. Olimning deyarlik barcha ilmiy tadqiqotlari faqat nazariy jihatdan emas, balki xalq xo'jaligida ham katta ahamiyat kasb etdi. Limon, olma kislotalari ajratib olishning yangi va arzon usuli yaratilib, ishlab chiqarishga joriy qilindi.<sup>1</sup>

Anabazis o'simligi alkoloidlarini ayrim-ayrim ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Ilmiy ishlarning ob'ektlarini to'g'ri tanlash, ularga metodik jihatdan yondoshish, zamonaviy fizik-kimyoviy, kvant-kimyoviy usullarni qo'llash fizik, organik, biologik kimyo sohasida qator masalalarni hal qilishga yordam berdi. Bu kimyo fanining yangi sohasi-biorganik kimyo fanining vujudga kelishiga ma'lum hissa qo'shdi.

Limon va olma kislotalari olish texnologiyasi sobiq Ittifoq davridagi Xalq Xo'jaligi Yutuqlari ko'rgazmasining oltin medalini olishga sazovar bo'lgan edi. Akademik Obid Sodiqov xalqaro ilmiy anjumanlarda O'zbekiston fani dovrug'ini taratgan olimlardan. U 1956 yilda GDR, 1958 yilda AQSh, 1959 yillarda Bratislava 1960 yil Frantsiya, 1964, 1967 yillarda Hindiston va boshqa erlarda uyushtirilgan konferentsiyalarda ma'ruzalar bilan chiqdi.

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.559

Akademik Sodiqov Obid Sodiqovich katta tashkilotchilik qobiliyatiga ham ega edi. U qariyib 20 yil davomida O'zbekiston Fanlar Akademiyasini boshqardi.

Sovetlar hukumati 50-80 yillarda ham sotsialistik realizm bayrog'i ostida adabiyot vositasi orqali kommunistik firqa mafkurasini va buyuk rus millatchiligi g'oyasini ilgari surdi. Urushdan keyingi yillarda Kommunistik firqani, «buyuk rus xalqi»ni, sovetlar hukmronligini ko'klarga ko'tarib maqtash masalasi adabiyotning bosh va asosiy vazifasi edi. Shu boisdan ham bu davrda o'zbek ijodkorlaridan G.G'ulom, K.Yashin, R.Fayziy, A.Muxtor, Uyg'un, H.G'ulom, A.Qahhor. Mirtemir va boshqalarning ijodida ushbu mavzu Markaziy o'rinni egallaydi. Jumladan G`afur G`ulom (1903-1966) «Mening partiyam», «Lenin chashmasi», «V.I.Leninga», «Partiyaga ming rahmat», «Istiqlol qo'shig'i» kabi she'rlarida Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, Ulugbekday buyuk zotlarning jahoniy ahamiyati Lenin tufayli sodir bo'lganligini yozadi. U Lenin tufayli O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada olamshumul tarixiy zafarlar kuchdi, deb jar soladi. Holbuki, xalqimizning yuqorida nomlari tilgan olingan buyuk siymolarini hali Lenin dunyoga kelmasdan necha-necha asrlar ilgari ham jahon ahli bilar va qadrlar edi. Sovetlar hukumronligi yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida erishgan muvaffaqiyatlari to'g'risida to'xtalmasa ham bo'ladi.

G`ofur G`ulom I.Stalin shaxsiga sig'inishning bevosa guvohi bo'lgan va respublikada amalga oshirilgan qatag'onliklar,adolatsizliklar va nohaqliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan adiblardandir. U o'z millatining bir ijodkor vijdonli vakili sifatida shaxsga sig'inish yillarida bo'lib o'tgan dahshatli voqealarga munosabat bildirish o'rniga xalq jallodiga bag'ishlab, «Iosif Stalin» odasini va shuning singari o'nlab she'rlar bitdi. G`ofur G`ulom shu darajagacha borib etdiki, «Oktyabr, Partiya, Lenin va rus xalqi bo'lmasa, o'zbek xalqi uchun «rang hid qayoqda» (Assalom»), deydi.

Shu bilan bir qatorda uning «Vaqt», «Sog'inish» singari mag'zi to'q she'rlari ham maydonga kelgan edi.

Xuddi shunday yo'nalish yozuvchi va dramaturg Komil Yashin ijodiga ham xosdir. U o'zining butun ongli ijodiy umrini Leninni, kompartiyani, sovetlar

tuzumini, rus xalqini maqtash, ularga madhiya va hamdu sanolar o'qishga sarfladi. Ayni zamonda xalqimizning o'tmishini rangsiz bo'yoqlarda ifodaladi, mulkdorlar, boylarni faqat bir tomonlama baholab ularni johil, savodsiz, xotinboz va maishiy buzuq kishilar timsolida yoritdi. K.Yashinning «Yo'lchi yulduz» (1957), «Inqilob tongi» (1974) va boshqa sahna asarlari bu fikrimizning yorqin dalilidir.

Sovetlar hukumronligi davridagi g'oyatda og'ir sharoitda ham xalq ijodkorlari degan yuksak nomga dog' tushirmagan milliy manfaatga xiyonat qilmagan ulug' adiblar, yozuvchi va shoirlar anchagina bo'lgan. Ular xalqimizning o'tmish tarixini, inqilobiy an'analari, sof sevgi muhabbat va milliy udumlarini badiiy ijod vositasi ila tarannum etganlar. Biz bu o'rinda Oybek, O.Yoqubov, Shuhrat, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Orlov, Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov, A.Ibrohimov, X.To'xtaboev, O.Matjon, M.Boboev, X.Davron, G.Nurullaeva va boshqa o'nlab yosh ijodkorlarni nazarda tutmoqdamiz. Ularning sa'y-harakatlari tufayli 50-80 yillarda bir qator to'la qonli badiiy jihatdan yuksak saviyadagi milliy ruh va g'urur bilan sug'orilgan ajoyib asarlar yaratildi. M.Ismoiliyning «Farg'ona tong otguncha», M.Shayxzodaning «Toshkentnomma» lirk poemasi, «Mirzo Ulug'bek» tragedik dramasi, A.Qahhorning «O'tmishdan ertaklar», «Tobutdan tovush», O.Yoqubovning «Diyonat», «Ulug'bek xazinasi» va «Qo'hna dunyo», P.Qodirovning «Yulduzli tunlar», «X.To'xtaboevning Kasoskorning oltin boshi», O'.Xoshimovning «Bahor qaytmaydi», «Nur borki soya bor», Sh.Xolimirzaevning «Qora kamar», I.Sultonning «Imon», X.G'ulomning «Toshbolta oshiq», A.Orlovning «Hakim va ajal», O.Matjonning «Beruniy», «Pahlavon Mahmud», E.Vohidovning «Oltin devor», va boshqa o'nlab asarlari ana shular jumlasiga kiradi. Bu asarlar xalqimizga badiiy zavq-shavq bag'ishlabgina qolmasdan, ularga juda katta ma'naviy ozuqa ham beradi, yoshlarimiz ongida xalqimizning o'tmish tarixi bilan, ulug' bobokalon avlod-ajdodlarimiz bilan faxrlanish va g'ururlanish his-tuyg'usini shakillantiradi hamda ona vatanga mehr-muhabbatni yanada jo'sh urushiga ko'maklashadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 407-408.

70-80 yillarda badiiy ijodning she'rxonlik va g'azalxonlik yo'nalishida ham buyuk qobiliyat egalari etishib chiqdi. Oybek, M.Shayxzoda singari qalam sohibalarining ijodlariga yangi mazmun va sayqal bergen A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, Rauf Parfi, X.Davron, Azim Suyun, Gulchehra Nurillaeva va boshqalar o'z she'rlarida Vatan va xalqqa sadoqatni, mehnatni ulug'lab, sof sevgi va muhabbatni tarannum etdilar. Jumladan Maqsud Shayxzoda Vatanni, yurtni ulug'lab uning go'zalligini va buyukligini kuylab:

Bu yurtning o'g'lliman, onamdir o'ljam,

Bu yurtga eng so'lim qofiya-ko'klam.

Shunchalik pokiza, shunchalik ko'rjam,

Unga qancha sochsak she'rda gul-kam,

degan edi «Yurtim» she'rda.

60-80 yillarda o'zbek she'riyatida porlagan yulduzlardan biri **Abdulla Oripov (1941)** bo'ldi. Uning birinchi she'rlar to'plami 1965 yilda «Mitti yulduz» nomi bilan paydo bo'ldi. Shundan so'ng, shoirning «Ko'zlarim yo'lingda!» (1967), «Onajon», (1969), «Ruhim» (1971), «O'zbekiston», «Qasida» (1972), «Xotiro», «Yurtim shamoli» (1974), «Hayrat» (1979), «Hakim va ajal» (1980), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983) va boshqa she'rlar to'plamlari bosilib chiqdi. A.Oripov tom ma'noda xalq shoiri sifatida nom chiqardi va tanildi. U el, millat, yurt dardi, tashvishi bilan yondi va ijod qildi. Biz Abdulla Oripov badiiy faoliyatini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning betakror ijodiy barkamolligi xalqi bilan, millati va yurti taqdiri bilan hamnafas rivojlanib borganligini va tobora teranlashganining guvohi bo'lamiz. Shoir eng og'ir qatag'onlik yillarida ham xalqqa bor gapni, rostini aytishdan qo'rwmadi. Agar u «Toqat» she'rda:

Bozordan tutoqib qaytar uyga chol,

Go'sht qayda? Yog' qani? Va'da so'zdamni?

Kampiri xo'rsinib yupatar darhol,

-O'kingmang, taqchillik faqat bizdami?!

desa, bir to'rtligida:

Ho'kizning bo'yniga taqsang taqinchoq,

Tomosha ahliga bo’lgan ovunchoq.

Sen odam shaklida yurgan bir govsan,

Hayf senga na nishon, oddiy bir munchoq, deydi.

O’zining vatanparvar, elparvar va ayni paytda sof sevgi va muxabbatini tarannum etuvchi serqirra lirik ijodi bilan xalq hurmatiga sazovar bo’lgan g’azalnafis shoirlardan biri **Erkin Vohidovdir** (1936). Shoirda she’riyatga havas juda erta, o’n besh yoshlardan boshlab uyg’ongan. 1990 yilga qadar Erkin Vohidovning o’ndan ortiq she’riy va dostonlar to’plamlari matbuot yuzini ko’rdi. Bular: «Tong nafasi», (1961), «Qo’shiqlarim sizga» (1962), «Yurak va aql» (19630, «Mening yulduzim» (1964), «Nido» (1965), «Lirika» (1965), «Palatkada yozilgan doston» (1967), «Yoshlik devoni» (1969), «Chirog’bon» (1970), «Dostonlar» (1973), «Hozirgi yoshlar» (1971), «Muxabbat», «Tirik sayyoralar» (1980), «Sharqiy qirg’oq» (1982), ikki jildlik saylanma-«Muxabbatnama» va «Sadoqatnama» (1986), «Shoiru she’ru shuur» (1989) va «Kuy avjida uzilmasin tor» kabilar xalqimizning eng sevib o’qiladigan asarlariga aylandi.

1946—1985 yillar orasida o’zbek adabiyoti o’z taraqqiyoti- ning murakkab va turli bosqichlardan iborat davrini bosib o’tdi. Bular Ikkinci jahon urushidan keyingi tiklanish yillarini (1945—1956); Stalin shaxsining fosh etilishi va xrushchevcha «iliqlik» yillarini (1956—1964); «Rivojlangan sotsializm» g‘oyasi olg‘a surilgan yillarni (1964—1985) o’z ichiga olgan va har uchala bosqich shu yillarda ro‘y bergen ijtimoiy voqealarga ko‘ra nomlangan bo‘lib, o’zbek adabiyotining taraqqiyot yo‘li va tamoyillari ham shu davrda turlicha ko‘rinishga ega bo‘ldi.

O’zbekiston adiblari urushdan keyingi mamlakatning haqiqiy ahvolini yaxlit bilganliklari uchun ham ayrim shoirlarning lirik she’rlarida ma’yusona ohanglar, yozuvchilarining ocherk va hikoyalarda mamlakat kechirayotgan qiyinchilik tasviri yo‘q emas edi. Partiya 1946—1948 yillarda san’at va ada- biyotga oid bir necha qarorlar qabul qilib, yozuvchilarga voqe- liqsagi ijobiy ko‘rinishlar, kishilarining xursandchilik holat- lari va kayfiyatları haqida asarlar yozish, sovet

voqeligi uchun tipik bo‘lmagan nuqsonlar va qiyinchilik tasviridan qochish, hayotni «gulgun» ranglar bilan aks ettirish vazifasi topshirildi.

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston YOzuvchilar uyushma- siga rahbarlik qilgan va o‘z lavozimiga ko‘ra partiya da’vatiga «labbay» deb javob bergen Oybek 50-yillar arafasida «Oltin vodiydan shabadalar» romanini yozdi. Bu asar urush tufayli xo‘jaligi izdan chiqqan kolxoz hayotining ayrim manzaralarini aks ettirdi. Ammo roman nashr etilar-etilmas, taniqli munaqqid V.Zohidovning «SHarq yulduzi» jurnali (1950 yil, 11 son) va «Qizil O‘zbekiston» (1950 yil 10, 15, 17 dekabr sonlari) gazetasida tanqidiy maqolalari e’lon qilindi.

O‘sha kezlarda sovetlar mamlakati bo‘ylab yangi qatag‘on pallasi boshlangan bo‘lib, SHayxzoda, Mirzakalon Ismoiliy, SHuhrat, Said Ahmad, SHukrullo singari yozuvchilarni «temir parda» orqasiga tashlashga ulgurilgan edi. Ana shunday sharoitda V.Zohidovning «Oltin vodiydan shabadalar» romanini har tomonlama yaroqsizga chiqargan maqolalari Oybek taqsirida fojiali rol o‘ynashi tabiiy edi.

Urushdan keyingi davrda Abdulla Qahhorning «Qo‘shchinor chiroqlari», Rahmat Fayziyning «CHo‘lga bahor keldi», Parda Tursunning «O‘qituvchi», Ibrohim Rahimning «Hayot buloqlari», Oybekning «Nur qidirib» qissa va romanlari yaratilga- nini va o‘zbek adabiyotida bunday «mo‘l hosil» ilk marotaba bo‘lganini alohida qayd etish joizdir. To‘g‘ri, bu asarlarning birortasini «O‘tgan kunlar» (Abdulla Qodiriy) yoxud «Navoiy» (Oybek) bilan yonma-yon qo‘yish mumkin emas. Lekin yaqinyaqingacha o‘zbek adabiyotining nochor sohasi bo‘lib kelgan yirik nasrda miqdor o‘zgarishlari bo‘layotganining o‘ziyoq ijobiy hodisa edi.

SHe’riyatda esa G‘afur G‘ulomning «Vaqt», «Soginish», Oybekning «Raisa» singari mag‘zi to‘q she’rlari maydonga keldiki, ular ham, o‘z navbatida, she’riyatimizning ertasiga umid uyg‘otmay qo‘ymasdi.

Ana shunday sharoitda kommunistlar partiyasining XX s’ezdi o‘tkazilib, unda Stalin shaxsining fosh etilishi sovetlar mamlakati tarixiga «xrushchevcha iliqlik yillari» deb kirgan yangi davr boshlandi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyati shunda ko‘rindiki, N.S.Xrushchev, Stalin shaxsiga sig‘iiish davri il- latlarini fosh

etibgina qolmay, mamlakatda bir oz bo‘lsa-da, demokratik normalar tiklanishi, inson huquqlari muhofaza- lanishi va boshqa ijtimoiy muhim hodisalar ro‘y berishiga kafolat berdi. Qatag‘on etilgan yozuvchilarning tirik qolganla- ri ozodlikka chiqarilib, ular boshiga tushgan kulfatlar ham matbuot sahifalarida yoritila boshladi.

Sovet jamiyatida o‘ta qiyinchilik bilan bo‘layotgan ba’zi ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida Abdulla Qahhor 1967 yili, tavalludining 60 yilligiga bagishlangan yubiley kechasida nutq so‘zlab, «Men partianing oddiy soldata emas, balki ongli a’zosiman», degan so‘zlarni aytdi. Aslida, har bir insonning fuqarolik huquqlari zamirida yotgan bu haqiqat kommunistik partianing Uzbekistondagi rahbarlari nazarida partiyaga qarshi isyon shakkoklik edi. SHuning uchun ham ular Abdulla Qahhorga bo‘lgan munosabatlari ni keskin ravishda o‘zgartirdilar. Uning asarlari nashr va targ‘ib etilmay qo‘ydi. O‘sha kezlarda bosmadan chiqqan «YOshlar bilan suhbat» kitobi esa taqiqlandi.

Umuman, siyosiy ta’qib va tahsid yana partianing san’at va adabiyotga bo‘lgan siyosatining asosiy belgilardan biri sifatida qayta tiklandi. 20-yillar arafasida va keyin ham yashagan shoirlarning asosan Lenin, oktyabr va partiyani olqishlovchi she’rlaridan iborat «Tirik satrlar» almanaxida CHo‘lponning «xavfli» nomi tilga olingani uchun u kitob do‘konlaridan yi- gishtirib olindi. «O‘zbegim» qasidasini yozgani va butun bir xalqning milliy uygonishiga turtki bergani uchun Erkin Vo- hidov tahsid va tazyiqlar ostida qoldi. «Men endi kimga suyangayman, birinchi muhabbatim» degan satrlari bilan go‘yo partianing ulugvor rolidan ko‘z yumgani uchun Abdulla Ori- povning «Birinchi muhabbat» she’ri siyosiy xatodan iborat deb topildi. Uning o‘sha davr «ruhiga» to‘g‘ri kelmagan «Jannatga yo‘l» dramatik dostoni, butun umri davomida syyosiy nazorat ostida yashagan adib Maqsud SHayxzodaning so‘nggi «Abu Rayhon Beruniy» tarixiy tragediyasi sirli ravishda qo‘lyozma holida «yo‘qoldi». To‘g‘ri, Abdulla Ori povning asari keyinchalik qaytarib berildi. Ammo SHayxzodaning yo‘qolgan asari hanuzgacha topilgan emas.

Sovet jamiyatidagi ijodkorni haqorat etuvchi ana shunday voqealar adabiyot va

san'atning shu davrdagi taraqqiyotiga monelik qilmay qolmagan, albatta.

60-yillarning boshlariga kelib o‘zbek yozuvchilari sotsialistik realizm «ochiq sistema»ga aylangandagina badiiy baquvvat asarlar berishiga ishongan edilar. SHuning uchun ham adabiyoti- mizning iste’dodli vakillari I.Brejnev tomonidan olga surilgan «rivojlangan sotsializm» g‘oyasini badiiy asarlari qatiga singdirishga ortiqcha ehtiyoj sezmadilar. Faqat III.Rashidov va V.Zohidovning publitsistik chiqishlaridagina bu «g‘oya» o‘z aksini topdi. SHuningdek, Asqad Muxtorning «Amu» va Ibrohim Rahimning «Oqibat» romanlaridagi Afg‘oniston voqealari va Rossiyaning noqoratuproq zonasidagi erlarning o‘zbek melioratorlari tomonidan o‘zlashtirilishi tasvirlan- gan lavhalarda bu g‘oyaning bevosita aks-sadosi eshitilib turdi.

60-yillarning ikkinchi yarmi va 70-yillarda yaratilgan o‘zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari mavjud tuzumga nisbatan muxolifat maqomida maydonga kelgan. SHuning uchun ham bu davrda yozilgan aksar asarlar hali o‘z qimmatini yo‘qotgan emas.<sup>1</sup>

60-80 yillardagi adabiy jarayonda **Omon Matjonning (1943)** ham o’ziga xos munosib o’rini bor. U 60-yillardan e’tiboran o’zining to’la qonli va teran she’riy ijodi bilan matbuotda ko’rina boshladi. Shoir Omon Matjon 1970 yilda «Ochiq derazalar», 1973 yilda «Karvon qo’ng’irog’i», 1977 yilda «Yonayotgan daraxt», 1979 yilda «Yarador chaqmoq», «Haqqush qichqirig’i», 1983 yilda «Seni yaxshi ko’raman», 1986 yilda «Gaplashadigan vaqtlar» va 1989 yilda chop etilgan «Ming bir yog’du» she’riy to’plam va dostonlar muallifidir. Omon Matjon asarlarining bosh mavzusi-Vatan,adolat, tenglik, tinchlik, muhabbat, hallollik va imondir.

Xullas, tarixiy an'anaga ko’ra 1946-1990 yillarda ham o‘zbek badiiy ijodiyotida qalam tebratgan va o’zining serqirra va sermazmun faoliyati bilan xalqimizning ma’naviy madaniyatiga munosib hissa qo’shgan ulug’ farzandalri behisob ko’p bo’lgan. 1993 yilda «Fan» nashriyotida S.Mirvalievning «o‘zbek adiblari» (Ixcham adabiy portretlar) risolasi bosildi. Unda 123 ijodkor haqida

<sup>1</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. -Т.: Шарқ, 2000 – Б.578-581

qimmatli ma'lumotlar beriladi, shundan 109 tasi 40-80 yillarda ham o'z ijodi bilan el va yurtga tanilgan ulug' adiblar va mutafakkirlardir.

1946-1990 yillarda O'zbekiston teatr va musiqa san'ati va uning ijodkorlari Kommunistik firqa mafkurasi va siyosati ta'siri-bosimi ostida faoliyat ko'rsatishga majbur edi. Sahna asarlari va qo'shiqlar repertuarlari ming martalab chig'iriplardan o'tkazilar va so'ngra xalq hukmiga havola qilinardi. Bu chig'iriplar, tahlil va xulosalar jarayonida har bir san'at asarining «partiyaviyligi», «sinfiyliги», «baynalminalligi», «nechog'lik rus xalqiga hamdu-sanolar aytib ulug'lash» hisobga olinar edi. Har qanday milliylik «millatchilik», «qoloqlik», «milliy cheklanganlik», «eskilikni qo'msash» tarzida qoralanar va repetuardan chiqarilar edi. Ammo har qancha siquv, tazyiq, qatag'on va hujumlarga qaramasdan o'zbek milliy san'ati yo'qolib ketmadi va o'zining tarixiy an'analarini davom ettirdi. Shu yillar davomida o'zbek teatr va musiqa san'ati dovrug'ini butun dunyoga tanitgan ajoyib yulduzlar etishib chiqdi. A.Hidoyatov, S.Eshonto'raeva, Sh.Burhonov, M.Turg'unboeva, O.Xo'jaev, N.Rahimov, A.Bakirov, Tamaraxonim, G.Izmailova, K.Otaniyozov, Yu.Rajabiy, K.Ismoilova, R.Hamraev, S.Xo'jaev, B.Zokirov yosh ijodkorlardan Sh.Jo'raev, O.Otajonov, Yo.Ahmedov, E.Komilov, T.Mo'minov va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbek sahnasi ustalarining mahorati va qobiliyatlariga butun dunyo tan bergen, ular haqida afsona va rivoyatlar to'qilgan.<sup>1</sup>

Hamza teatrda ingliz yozuvchisi Shekspirning «Otello» tragediyasidagi bosh qahramon Otello obrazini yaratgan va uni 500 martadan ortiq o'ynagan buyuk san'atkor va noyob qobiliyat egasi **Abror Hidoyatov** siymosiga quyidagicha baho berilgan edi: «Men Otello rolida o'ynagan ko'p ajoyib aktyorlarni ko'rghanman. Lekin Abror Hidoyatovdan ustasini ko'rghan emasman». Reyngold Glier, 1949.

«Shekspir hayot bo'lsa-yu, o'zi Otello va Dezdemonasini Hamza teatri sahnasida ko'rsa edi, uning ulkan ijrochi san'atkorlari bilan haqli suratda faxrlangan bo'lur edi». H. Djonson, ingliz, 1954.

---

<sup>1</sup> Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010, – B. 412-413.

Teatr sahnasida bannisoli o'chmas yulduz bo'lib chaqnagan **Shukur Burxonovdek** noyob qobiliyat sohiblari har doim dunyoga kelavermaydi. Otaxon shoir Maqsud Shayxzoda Shukur Burxonovning yaratgan betakror obrazlariga qoyil qolib quyidagi to'rtlikni bitgan ekan:

Shukurni sahnada bir ko'rgan kishi  
U kecha uqlashi mumkinmi? Guman.  
Tomosha ahlining ezgu hohishi:  
Koshki Shukrona bo'lsm qahramon...

Yoki o'zining maftunkor va betakror nolasi va kuylari bilan o'zbek qo'shiqchilik san'ati dovrug'ini butun dunyoga taratgan, O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti **Komiljon Otaniyozovni** aytmaysizmi. Yozma manba'larning guvohlik berishicha, u Seylon, Xitoy, Birma, Turkiya, Hindiston, Eron, Afg'oniston, Rossiya va boshqa juda ko'plab mamlakatlarda Xorazm qo'shiqchilik san'ati tarovatini keng tarqatgan. 1980 yilda qiziq bir ibratli voqeа bo'lgan ekan. Taniqli mashhur hind rassomi, jamoat va madaniyat arbobi Amina Bintu Moskva Markaziy televideniyasi bilan muloqot o'tkazgan. Diktor: Siz qanday ovozni, yoqimli ovoz deb hisoblaysiz? O'zingiz yoqimli deb hisoblagan ovoz sohibi kim? deya savol beradi. Amina Bintu: «Ovoz avvalo yoqimli bo'lmosh'i darkor... ovozda hissiyot va tuyg'u bo'lishi lozim, ovoz to'la qonli, ya'ni qulqoni to'ldirib turishi kerak... Men dunyoda (u «dunyoda» deb alohida ta'kidladi) bir san'atkorning borligini bilaman, u sizlarning Komiljon Otaniyozovingizdir. Uning ovozi barcha davralar va zamonlar ichidagi eng noyob ovozdir!».

Bu voqeа Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lgan. Komiljon Otaniyozov shahardagi Hazrat Ali jomi masjidida kontsert berganda 20 ming tomoshabin to'plangan. Kontsert tamom bo'lgach Hazrat Ali masjidi bosh muazzini boshchiliga maxsus Hay'at tuzilib, Komiljon Otaniyozov yoniga keladilar va undan og'zini ochib tomog'i va halqumini ko'rsatishni iltimos qiladilar ...G`ayriodatiy bu taklifdan Komiljon aka dastlab hayratga tushadi, keyinroq esa bu talabning maqsadi oydinlashadi. Ma'lum bo'lishicha, qo'shiq tinglaganlar «bu yanglig' ovoz

odam-bandaga nasib o'lmas, balki tomog'ida birorta moslama bordir» degan fikrga kelgan ekanlar. Komiljon aka nim tabassum bilan uning taklifiga rozi bo'ladi va hay'at a'zolari mashhur san'atkor tomog'ida «hech qanday tin moslama yo'qligini» e'tirof etadi... Aslida, turk tinglovchilarini hayratga solgan narsa Komiljon aka ovozidagi bemisl qudrat bo'lgan ekan. Uzunasiga bir necha chaqirimga cho'zilgan yigirma ming nomozxon tiz cho'kib, sajdalik holatiga some' bo'lib o'ltirar ekan, hech qanday ovoz kuchaytirgichlari bo'lman sahnada turib kuylangan qo'shiq barcha tinglovchilarga butun mazmundorligi va shiradorligini saqlagan holda etib borishi mo'jizaday edi-da.

Komiljon Otaniyozovning baxti va abadiylici mehribonlik va samimiyat bilan u tarbiyalab etishtirgan hisobsiz shogirdlardadir. Komiljon akaning betakror sozi va ovozi u bu dunyoni tark etgan bo'lsada ustozni jondan sevgan va ardoqlagan shogirdlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq artistlari va xushovoz xonandalar Quvondiq Iskandarov, Ortiq Otajonov, Olmaxon Hayitova, Sharif Sultonov, Karimboy Jumaniyozov va boshqalarning ijodlarida tobora sayqal topmoqda.

Xullas, respublika maqomchilar, «Lazgi», «Shodlik», «Go'zal», «Dutorchi qizlar» kabi ansamblar mamlakat mehnatkashlariga xizmat qilishdan tashqari, O'zbekiston san'atini xorijiy mamlakatlarda ham tarqatib katta obro'-e'tibor qozondilar.

O'zbek kino san'atining 1946-1990 yillardagi faoliyati shuni ko'rsatdiki, u faqat nomigagina «O'zbekfilm» deb yuritildi. Amalda esa unda milliylikdan nishona ham yo'q edi. To'g'ri elu-yurtga tanilgan N.G`aniev («Nasriddin sarguzashtlari»), K.Yormatov («Alisher Navoiy», «Ibn Sino»), Y.A'zamov («Maftuningman», «Furqat») Sh.Boshbekov, I.Ergashev («Temir xotin») va boshqalar tomoshabin didiga mos filmlar yaratdilar. Ammo «O'zbekfilm» jamoasi o'zining Vatan va millat oldidagi burchini halol bajarmadi. Buning sabablari ko'p. Mana ulardan ba'zilari: birinchidan, «O'zbekfilm»da milliylikning bo'lmanligi ta'kidlandi. Buning sababi shundaki, «O'zbekfilm» uchun mutaxassis kadrlar asosan sobiq Ittifoqning Markaziy shaharlarida tayyorlanar edi. Ikkinchidan, kino asarlari dastlab rus tilida tayyorlanar va Moskvaga senzuraga yuboriladi. Markaz

tasdig'idan o'tgan filmlargina ekranlarga chiqarilar va so'ng o'zbek tiliga tarjima qilinar edi.

Uchinchidan, yuqoridagi sabablarga ko'ra, «O'zbekfilm»ga asosan rus tilida so'zlashuvchi xodimlargina ishga qabul qilindilar.

Bu ishlarning oqibati shunga olib keldiki, «O'zbekfilm»da faoliyat ko'rsatuvchi jamoa ahli bilan asosan o'zbek tilida ijod qiladigan 600 kishidan ortiq adiblar jamoasi o'rtaida do'stona ijodiy aloqa bo'lindi. Bu oqibatda hunuk va achinarli natijalarga olib keladi. «O'zbekfilm» uchun mahalliy ijodkorlar asarlar yozib bermadilar, yoki ular o'zaro umumiy til topaolmadilar. «O'zbekfilm» jamoasi esa o'z navbatida «o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas» deganlaridek o'zining eski hamtovoqlari bilan yanada mustahkamroq «ijodiy hamkorlik»ni rivojlantirdi. Buni 1985-1990 yillarda suratga olingan filmlar ro'yhatining o'ziyoq yorqin ko'rsatadi: «Bo'limgan voqe»-stsenariy muallifi Valentina Tokareva, rejissyor Qamara Kamolova, «Amirning xufyona sayohati»-stsenariy muallifi Boris Saakov, rejissyor Farid Davletshin, «Buvimni qaytaring»-stsenariy muallifi Isay Kuznetsov, rejissyor Muxtor Og'amirzaev, «Bolalaik stantsiyasidan chiqqan poezd»-stsenariy mualiflari Leonid Arkadev, Aleksandr Kovtun, rejissyor Habibullo Fayziev, «Hayot mazmuni»-stsenariy muallifi Ramzi Fataliev, rejissyor Damir Salimov, «Ikkinchchi aylana bo'ylab»,-stsenariy muallifi Aleksandr Goroxov, rejissyori Ravil Botirov, «Yovvoyi»-stsenariy muallifi Rustam Ibrahimbekov, rejissyor Qamara Kamolova, «Maysaraning ishi»-stsenariy muallifi Eduard Akonov, rejissyori Melis Abzalov, Bu ro'yxatni yana V.Jeleznikov, A.Leontev, V.Xmelnitskiy («Otga mehr»-rejissyori M.Og'amirzaev), E.Verigo, B.Turin («Inqilob vakil qilgan»-rejissyori Z.Royzman) kabi «O'zbek» dramaturglari bilan to'ldirish mumkin».

«O'zbekfilm»ning mavzulari doirasi ham juda tor va asosan «bosmachilik»dan boshi chiqmaganligi natijasida xalq orasida kinoya aralash «bosmachfilm» nomi berildi. 1985 yildan e'tiboran «qayta qurish» deb atalgan o'zgarishlar bahonasida «O'zbekfilm» o'zbek xalqining milliy qadriyat va an'analariga yot g'oyalarni, ahloqiy-ma'naviy buzuq yalang'och sahna asarlarini

ekranlar vositasi orqali tashviqot-targ'ibot qilib yoshlar tarbiyasiga mislsiz zarar keltirdi. Damir Salimovning «Yovvoyi itlar», Sanjar Boboevning «Vijdon azobi», Jahongir Fayzievning «Siz kimsiz?», Muzrob Boymuhammedovning «Najotsiz qotil», Farid Davletshinning «Amirning xufyona sayohati», Nozim Abbosovning «Samardagi uchrashuv» kabi filmlar xuddi ana shunday jihatni bilan ajralib turadi.

Sovetlar va Kompartiya mehnatkash xalqni toat-ibodatda saqlash uchun ommaviy axborot vositalaridan ham keng foydalandi. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda har bir millat o'z vakillarini hozirgi zamon axboroti bilan etarli darajada ta'minlashi uchun bir yilda 300 tadan 500 tagacha jurnal, 8 mingdan 12 mingtagacha nomda kitob chiqarishi kerak ekan. Busiz na milliy madaniyat, na milliy til ravnaqi to'g'risida so'z yuritish mumkin emas. (Biz sovetlar davrida chop etilgan ommaviy axborot vositalarning qullik va tobelik mafkurasini targ'ibot qilganligini hisobga olayotganmiz ham yo'q.) 1970 yilda O'zbekistonda 33 nomda jurnal va jurnal tipdag'i xabarnomalar nashr etilgan bo'lsa, 1987 yilda ularning soni ko'payish o'rniiga 32 taga tushib qoldi. Kitob nashr qilishchi? 1940 yilda O'zbekistonda 4 million o'zbek bo'lib 640 nomda kitob nashr qilingan, ya'ni har yuz ming nafar o'zbekka 11-12 tadan kitob to'g'ri kelgan. 1985 yilgi ma'lumotlarga ko'ra esa 16 millionli o'zbek aholisi uchun 982 nomda kitob chop etilgan, ya'ni har yuz ming o'zbekka 4-4,5 tadan kitob to'g'ri kelgan. Umuman, O'zbek tilida kitob chop etish yildan-yilga ko'payish o'rniiga kamayib borgan. Masalan, 1979 yilda-1058 ta, 1985 yilda-982 ta va 1986 yilda 947 ta nomda kitob o'zbek tilida chop etildi. Holbuki, 1986 yilda 1 million 20 ming eston aholisi uchun 1,420 kitob eston tilida chop etilganligini taqqoslasak O'zbekiston bu borada qanday ahvolda bo'lganligi yaqqol ko'zga tashlandi. Eng dahshatlisi shundaki, O'zbekiston FAning nashriyotida chiqarilgan adabiyotlarning 80 foizi rus tilida, 16 foizi boshqa tillarda va faqat 4 foizi o'zbek tilida chop etilgan, xolos.

Xulosa shundan iboratki, 1950-1980 yillarda sovetlar Kommunistik firqa mafkurasini, qizil saltanat hukumronligi g'oyasini O'zbekiston mehnatkashlari ongiga turli xildagi ma'rifiy-madaniy vositalar yordamida singdirishga intildi. Xalq

milliy ma'naviyati og'ir mustamlakachilik zulmi ostida sekinlik bilan bo'lsada rivojlanib bordi.

## XULOSA

Totalitar tizim jarayonida o‘lkadagi madaniy – ma’rifiy ishlar e’tibordan chetda qolmadi. 20 – 30 - yillarda savodsizlikni tugatish, ta’lim – tarbiya ishlari astoydil qo‘lga olindi. 1941 yili O‘zbekistonda 5.504 maktab bo‘lib, ularda 42.000 o‘qituvchilar dars berdi, 1 mln. 315 ming o‘quvchi ta’lim oldi. Sanoat ishlab chiqarishining ishchi kadrlarga talabini qondirish uchun fabrika, zavodlar qoshida maxsus o‘quv yurtlari ochildi.

O‘rta Osiyoda oliy ta’limning beshigi, hozirgi O‘zbekiston Milliy Universiteti bir qancha oliy o‘quv yurtlariga asos bo‘ldi, 1940 yili respublikada 30 ta oliy, 100ga yaqin o‘rta maxsus o‘quv yurtlari ishlab turdi.

1943 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi (O‘z FA) respublikada ilm – fanning markazi bo‘lib qoldi. 1945 – 1985 yillarda ko‘plab yangi ilmiy – tadqiqot institatlari, laboratoriyalar, ilmiy markazlar tashkil etildi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi va uning ilmiy tekshirish institutlarida fanning turli sohalari: ayniqsa kimyo, fizika, elektronika, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar rivojlandi. 80 – yillarning boshlariga kelib akademiya tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR filiali va 35 ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. 38 ming ilmiy xodim, shu jumladan, 1215 fan doktori, 15664 fan nomzodi fanning turli sohalarida tadqiqot ishlari olib bordi.

Respublikada madaniy – oqartuv muassasalarining soni 20 – 30 - yillarda ortib bordi. Achinarlisi shundaki, respublikada ta’lim – tarbiya, madaniy – ma’rifiy ishlar «SHaklan milliy, mazmunan sotsialistik» shiori ostida olib borildiki, asl maqsad «baynalmilalchilik» niqobi bilan pardalanib, o‘lkaga rus madaniyatini, ularning turmush tarzini tarqatishdan iborat bo‘ldi. 1938 yil 19 martda O‘zbekiston rahbariyati milliy maktablarda majburan rus tilini o‘qitish to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘qishlar va idoralarda ish yuritishlar 1929 yildan boshlab lotin, 1940 yildan boshlab kirill alifbosida olib boriladigan bo‘ldi. Bularning oqibatida ko‘p asrlar davomida arab alifbosida yaratilgan tariximiz, madaniyatimizni o‘rganishdan respublikaning tub aholisi mahrum bo‘ldi. 1927 yili o‘tkazilgan «Hujum» harakati

oqibatida o‘zbek xotin – qizlari jahon taraqqiyotiga tortilgan holda, ikkinchi tomondan, ular industriyalashtirish girdobiga keng jalb qilinib, o‘zlarining tabiiy burchlarini bajarish hamda SHarqona fazilatlaridan mahrum bo‘ldilar.

Madaniy – ma’rifiy muassasalar kompartiyaning g‘oyalarini, sotsialistik mafkurani omma o‘rtasida keng tarqatish yuzasidan faol ishlar olib bordi.

Fashizmga qarshi urush yillari izdan chiqqan ta’lim – tarbiya ishlari, madaniy – oqartuv muassasalari urushdan keyingi yillarda qayta tiklandi va kengaytirildi. 1970 yili respublikada 2977 ta klub muassasalari, 5822 ta kutubxonalar, 26 ta muzey, 3988 ta kinoqurilmalar ishlab turdi. Lekin, amalda bu muassasalarning bir qismi statistik axborotlarda oshirib ko‘rsatilgan, boshqa qismi har xil sabablarga ko‘ra qoniqarsiz bo‘lib, moliyaviy yordamga muhtoj, ayniqsa, qishloq joylarda tashlandiq ahvolda edi. Qanday bo‘lmasin bu muassasalar marksizm – leninizm soxta g‘oyalarini, sotsialistik qurilish amaliyotini tashviqot – targ‘ibot qilishning quroli bo‘lib xizmat qildi.

Urushdan keyin majburiy 7 yillik, 1959 yildan 8 yillik, 1970 yildan boshlab 10 yillik ta’lim amalga oshirila boshlanadi. 1980 yillarda o‘rta va oliy ta’lim tarmoqlari kengayib bordi. 1990 yil O‘zbekistonda maktablar soni 9.000 ga etdi, lekin ulardan 1.700 tasi ayanchli ahvolda bo‘lib, mukammal ta’mirlashni talab qilar edi. 1978 – 1979 - o‘quv yilida respublikada 43 ta oliy o‘quv yurti bo‘lib, bularning kunduzgi, sirtqi, kechki bo‘limlarida 26.000 talabalar o‘qidi. Respublika Fanlar Akademiyasida ilmiy – tadqiqot institutlarining safi kengayib, ularda yirik olimlar ilmiy izlanish ishlarini olib bordilar.

Talabalar, oliy ma’lumotli mutaxassislar, ilmiy xodimlarning soni jihatdan 10.000 kishiga hisoblaganda, O‘zbekiston ilg‘or mamlakatlar qatorida tursa ham kadrlar tayyorlash tizimida qo‘pol nuqsonlar bor edi. Oliy o‘quv yurtlariga viloyatlardan qat’iyan reja asosida qabul qilish: qanday o‘qimasin, ularni bitirtirib chiqarish natijasida ko‘pincha malakasi etarli bo‘lmagan mutaxassislarga diplom berishga to‘g‘ri keldi.

Ta’lim – tarbiya, ilmiy – tadqiqot ishlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari qanchalik yuqori bo‘lmagan, ular Markazga qaramligi sababli o‘zlarining ish

faoliyatida kompartiya mafkuraviy tazyiqidan chetga chiqolmadilar. O'quv dasturlari, ayniqsa ijtimoiy fanlar haddan tashqari siyosatlashtirildi. O'tmishda dunyoga mashhur bo'lgan, jahon fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan ajdodlarimiz nomi esga olinmadi, millatimizning boy tarixi va adabiyoti o'qitilmadi. CHunki, maktab, oliv ta'lim tizimining asl maqsadi O'zbekiston misolida butun jahonga sovet davlati milliy siyosatining tantanasini ko'rsatishdan boshqa hech narsa emas edi. Bu tizim respublikaning Markazga qaramligini yana ham kuchaytirdi

## **ФОЙДАЛАНИЛГАН МАНБА ВА АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ**

1. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Асарлар, 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1996.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т.2. -Т.: Ўзбекистон, 1996.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1996
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Ўзбекистон, 1998.
5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
6. Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. Тошкент: Академия, 2003 й.
7. Усмонов Қ., Содиков М. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). – Т.: Шарқ, 2001.
8. Ўзбекистон тарихи. Т., «Университет» 1997
9. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Т.: Шарқ, 2000.
10. Ўзбекистон тарихи (олий ўқув юртларининг номутахассис факултетлари талабалари учун дарслик). Р.Ҳ.Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. -Т.: Янги аср авлоди, 2003
11. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар. К.3. – Андижон: 2004.
12. Usmonov Q. O’zbekiston tarixi. –T.: IQTISOD – MOLIYA, 2006.

13. Shamsutdinov R. va boshq. Vatan tarixi. (Uchinchi kitob); R. Shamsutdinov, Sh. Karimov – T.: Sharq, 2010.
14. O`zbekiston tarixi:o`quv qo`llanma / Shamsutdonov R., Mominov X.; ma`sul muharrir S. Inoyatov. – T.: “Sharq”, 2013